

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ASHIRBAYEVA DILORAM RAVSHANOVNA

KOREYS TILIDA SUHBAT USULLARI

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2024

D.R.Ashirbayeva tomonidan tuzilgan “Koreys tilida suhbat usullari” o‘quv qo‘llanmasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv rejasi asosida Filologiya va tillarni o‘qitish (koreys tili) mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 811.531+811.512.133:81’1

KBK: 81.2-5 (5Kor) + (5Uzb)

A-93

ISBN 978-9910-8970-9-2

Mazkur o‘quv qo‘llanma koreys tilida suhbat usullariga bag‘ishlangan. Unda koreys muloqot madaniyatida salomlashish, iltimos va talab, maqtov, rad etish kabi holatatlarda qo‘llaniluvchi ifodalarning koreys xalqiga xos jihatlari yoritib berilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanmadan tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Shoira Usmanova,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Saodat Saidakbarova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Feruza Jumaniyazova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024- yil 1- iyuldagи 11-sonli majlisi bayoni asosida nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1

SALOMLASHISH

Kirish	4
1 진짜 궁금한 거예요? 아니면 왜 묻지? Rostdan ham qiziqdimi? Yoki bo'lmasa nega so'radi?	
2 약속인 듯 아닌 듯, 이것도 인사 Buni va'da deb qabul qilish mumkinmi? Bu ham salomlashishning bir ko'rinishi	
3 온 줄 알면서 왜 묻지? Kelganimni bilib turib nega so'radi?	
4 반가움의 표현, 우연을 강조하기 Zavqlanishni ifodalash, tasodifni ta'kidlash	
5 관심을 표현하며 인사하기 Qiziqishni bildirish orqali salomlashish ...	
6 전화를 끊을 때 인사 대신 이렇게! Go'shakni qo'yayotib xayrlashish ..	
7 병문안 갔을 때는 이렇게! Kasalxonaga tashrif buyurishdagi salomlashuv	
8 많이 준비했지만 아닌 것처럼 Ko'p harakat qilsa ham huddi hech nima qilmagandek	
9 오른에게는 하지 말아야 안사 Kattalarga aytish mumkin bo'lman salomlashish	
10 질문일까? 인사일까? Savolmi? Salommi?	
11 오랜만에 만났을 때는 이렇게! Anchadan beri ko'rishmaganda	
12 헤어질 때는 이렇게! Xayrlashayotganda	
13 어색한 상황에서 말문 열기 Noqulay vaziyatlarda suxbatni boshlash ...	
14 인사말에 이런 의미가 Salomlashishning ma'nolari	
15 인사할 때 동작도 다르게! Salomlashuvdag'i harakatlarning ma'nosi ...	

2

MAQTOV

16 호감을 표현하고 싶을 때는 외모 칭찬하기 Insonlarni tashqi ko'rinishini maqtash	
17 외모에 대한 칭찬은 조심스럽게 Tashqi ko'rinish ni maqtashdagi ehtiyotkorlik	
18 외모를 칭찬하는 재미있는 표현 Tashqi ko'rinishni maqtashdagi qiziqarli ifodalar	
19 크게 축하할 일이 있을 때 «한턱내» Muvafaqqiyat va yutuqqa erishganda한턱내.....	
20 칭찬을 받으면 겸손하게 거절하기 Kamtarlik bilan iltifotni rad etish ...	
21 지나친 자랑은 금물 Haddan tashqari maqtovning zarari.....	

- 22 다른 사람에게 공 돌리기 Boshqa insonga gapni burish
 23 칭찬인 듯 칭찬이 아닌 듯? Iltifotmi yo iltifot emasmi?
 24 잘한다? Yoki 잘 ~한다? O‘xshash, ammo turlicha ifodalar 1
 25 잘 했다 yoki 잘 됐다 ? O‘xshash, ammo turlicha ifodalar 2
 26 칭찬에 농담으로 대답하기 Maqtovga hazilomuz javob

3

ILTIMOS VA TALAB

- 27 상황을 설명하면서 부탁하기 Vaziyatni tushuntirib iltimos qilish
 28 비켜 달라고 말하면 이상해? Chetga o‘tishini so‘rash g‘alatimi?
 29 내가 언제 안 간다고 했지? Men qachon bormayman deb aytdim?
 30 부담스러운 요청, 가능성 묻기로! Noqulay talab, keling imkoniyat haqida so‘raylik
 31 안 가지고 왔는데 어떻게 말하지? Olib kelmagandim, qanday aytsam ekan?
 32 안 되어 있어서? 안 해서? O‘xshamadimi? Qilmadingizmi?
 33 식당 종업원에게 직접적으로? Restoran ishchilariga qanday murojaat?
 34 그냥 하는 말이 아니라 부탁이었어 Shunchaki gap emas, iltimos edi
 35 질문에 다시 질문을? Savolga qayta savol
 36 어려운 부탁, 어떻게 시작하지? Qiyin/Mushkul iltimos, qanday boshlasam ekan?
 37 사회자 말은 너무 격식적이야 Boshlovchi nutqi juda rasmiy ekan
 38 잠깐이 아닐 것 같은데요 Biroz ko‘p vaqt ketadiganga o‘xshaydi
 39 강압적인 건싫어! 권유하듯 요청하기 Taklif ma’nosidagi talab
 40 다시 설명해 달라고 요청하기 Qayta tushuntirishni so‘rash

4

RAD ETISH

- 41 솔직해도 너무 솔직한 거 아니야? 이유 있는 거절 Ochiq bo‘lsangiz ham juda ochiq degani emasmi? Sababli rad javobi
 42 추측인 듯 말하는 알쏭달쏭 한국인의 거절 Taxmin bilan so‘zlashuvchi koreyslarning rad javobi
 43 도와 달라 했더니 동문서답을? Yordam so‘raganda noo‘rin javob olish?
 44 올 것 같지만 안온다! 애매한 한국인의 거절 Kelaman deb kelmasa! Koreyslarning noaniq rad javobi

- 45 열버무리면 이것도 거절 Shubhali/Ikkilanishli javob - bu ham rad etish
- 46 미루기, 거절의 또 다른 방법 Kechiktirish – rad etishning yana bir usuli
- 47 생각 없다고? 이것도 거절? Fikr kelmasligi / Bilmaslik? Bu ham rad etishmi?
- 48 Yaxshilikdan bosh tortish qiyin
- 49 «괜찮아»의 두 얼굴 “괜찮아” ning ikki ma’nosı
- 50 직접적인 거절은 이제 그만! To‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etilishi endi tugadi!
- 51 정중하게 거절하기 Muloyimlik bilan rad etish
- 52 마음만 받고 선물을 거절하기 Qalban qabul qilib sovg‘ani rad etish ...

KIRISH

Bugungi kunda jahondagi globallashuv, integratsiyalashuv jarayonida dunyo tillarini va ularning madaniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot – insonlar o‘rtasida kechuvchi muhim kommunikativ jarayonlardan biridir. Muloqot jarayonida murojaat birliklari hamda suhbat usullari alohida o‘rinni egallaydi. Binobarin, ushbu sohadagi izlanishlarning dolzarblii madaniyatlararo muloqotda nutqiy faoliyatning o‘ziga xos o‘rnini aniqlash, insonlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida muvaffaqiyatli kommunikativ maqsadlarga erishishga imkon yaratish bilan belgilanadi.

Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyatlar vakillari o‘rtasidagi muloqotdir. Madaniyatlararo muloqotni tushunish uchun madaniyat nima ekanligini va madaniyatning o‘rni muloqot jarayonida qanday ekanligini anglab yetish muhimdir¹.

Shunday ekan, koreys muloqot madaniyati o‘ziga xos jihatlari bilan, nazokatlilik va odob-ahloq me’yorlariga katta ahamiyat berilishi bilan ajralib turadi. Inson muloqotga kirishar ekan, avvalam bor murojjat birliklaridan foydalanishda, tegishli vaziyatga mos bo‘lgan u yoki bu ifodalardan foydalanishda koreys xalqining pog‘onali munosabatlari haqida atroflicha ma’lumotga ega bo‘lishi talab etiladi². Biror tilni o‘rganish shu xalq tarixi, madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Zero, madaniyat tilning, xalqning ko‘zgusidir.

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Salomlashish”, “Maqtov”, “Iltimos va talab” hamda “Rad etish” kabi to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, har bir bo‘limda tegishli suhbat usullari haqida so‘z yuritiladi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, nutqdagi o‘rni, suhbat jarayonida u yoki bu ifodalardan foydalanish me’yorlari kabi jihatlari yoritib berilgan.

Tarixiy ildizlarga ega milliy-madaniy qadriyatlarni mujassam etgan koreys xalqi va nutq me’yorlariga xos bo‘lgan qiziqarli ifodalar “Salomlashish” bo‘limidan

¹ Гузикова М.О. Основы теории межкультурной коммуникации. Екатеринбург, Изд-во Уральского университета. 2015. – С. 16.

² Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқики. Фил. фан. бўйича фал. док. дисс... (PhD). – Тошкент, 2023. – Б. 90.

o‘rin olgan bo‘lib, o‘quvchi bu bo‘limda nafaqat koreys tilidan bilimlarini oshirishi, balki koreys madaniyati bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi.

Madaniyatlararo muloqotda iltifot lingvistik xulq-atvordagi eng keng tarqalgan konstruktsiyalardan biridir. U madaniy qadriyatlarni o‘zida aks ettirib, uni qabul qiluvchini xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishi yoki xarakterini ochiq ifoda etuvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqtov shakllarini o‘zlashtirmaslik kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin³. Ayni shu jihatlarga ahamiyat bergen holda “Maqtov” bo‘limida koreys millatiga xos bo‘lgan maqtov usullari, ularda mujassamlashgan ma’no, maqtovga nisbatan javob ifodalari aniq yoritib berilgan.

Kishilar ba’zida o‘z xohish-istiklarini suhbatdoshga yetkazayotganda muloqotning odob-axloq me’yorlariga amal qilishi suhbatning ijobiy yoki salbiy amalga oshishining sabablaridan hisoblanadi. “Iltimos va talab” bo‘limida koreyslar bilan muloqotga kirishishda, iltimos yoki talab qilish usullarining o‘ziga xosligi, ushbu jarayonga mos to‘g‘ri ifodalar haqida batafsil yozilgan va atroficha tushunchalar berilgan.

Shuningdek, “Rad etish” bo‘limida esa koreys jamiyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishning suhbatga salbiy ta’siri haqida so‘z borib, suhbatdoshning iltimosi yoki taklifiga nisbatan uning kayfiyatiga ta’sir etuvchi omillarni chetlab o‘tuvchi suhbat usullari hamda ifodalar misollar va tahlillar bilan keng tushuntirigan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv rejasi asosida “Koreys filologiyasi” kafedrasи, filologiya va tillarni o‘qitish (koreys tili) ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Asosiy sharq tili (koreys tili)”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Sharq tillarini o‘qitish metodikasi (koreys tili)” fanlari doirasida mazkur o‘quv qo‘llanma qo‘srimcha adabiyot sifatida muhim ahamiyatga ega. O‘quv qo‘llanma aynan muloqot jarayonini sifatli amalaga oshirish va nutq ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni ko‘zda tutadi. O‘quv qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlari, “Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari)” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga

³ Ключко Л.И. Похвала как оценочное высказывание в английском языке. – Вестник Международного Славянского ун-та. — №4 (3), 2000. – С. 50-53.

“Asosiy sharq tili (koreys tili)”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Sharq tillarini o‘qitish metodikasi (koreys tili)” fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda qo‘srimcha manba vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sodan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sodan “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 19-yanvar sanasidagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu o‘quv qo’llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

1

SALOMLASHISH

1. 진짜 궁금한 거예요? 아니면 왜 묻지? CHINDAN QIZIQDIMI? YOKI NEGA SO'RADI?

1. Tushlik soat 14:00 da

왕린: Aka (선배님)⁴ Salom!

현우: O‘, Vanglin! **Ovqatlandingmi?** (밥 먹었어?)⁵

왕린: Ha, yaqinda ovqat....

현우: Mayli, yana ko‘rishamiz ~~~

왕린: Qiziq... So‘rashga so‘rab.... Yana javobimni ham tinglamasdan ketishi...

2) 민아: Vanglin! **Qayerga ketyapsan?** (어디 가니?)

왕린: Hm, darsga ...

민아: Yana gaplashamiz, men kechikayotgandim...

왕린: Yyyyyooooo‘q.... nega.... Nega hamma menga savol beradi-yu, javobimni tinglamay ketib qoladi?



⁴ Koreyada o‘qishda o‘zidan yuqori bosqichda o‘qiydigan qiz va bollarga nisbatan 선배님 murojaatidan foydalilaniladi. Tarjimada vaziyatga qarab ism+aka/ ism+opa ko‘rinishida berilishi mumkin.

⁵ 밥 먹었어요? – deb hol-ahvol so‘rashning ham o‘ziga xos etimologiyasi mavjud. Ma’lumki, koreyslarning asosiy taomi bu – guruch bo‘lgan. Urush davrida insonlar bir-biridan hol-ahvol so‘raganda aynan 밥 먹었어요? - deb so‘ralgan. Javoban 네, 밥 먹었어요 deb javob bersa, demak javob beruvchining qorni to‘q va ahvoli yaxshiligi ma’lum bo‘lgan.

Tushlik vaqtida matabda 선배 si bo‘lmish Xyonuni uchratgan Vanglin xursand holda u bilan salomlashdi. Biroq, Xyonu Vanglinga “잘 지내니?” deb salomlashish o‘rniga “밥 먹었어?” ovqatlandingmi? - deb so‘radi. Bunday salomlashishga tushunmay qolgan Vanglin ahamiyat bermay yaqinda taom tanovul qilganini aytdi, biroq Vangli so‘zini oxirigacha tugatmasdan Xyonu ketib qoldi. Bu odobsizlik emasmi?! Keyingi suxbatda esa, Mina bilan yo‘lda ko‘rishib qolgan Vanglin. Vanglin Mina bilan xursand holda salomashishga shaylanganida Mina kutilmaganda Vanglinga “어디에 가니?” deb so‘radi. Ikki vaziyatda bunday salomlashishning ma’nosi nima? Salom o‘rniga “밥 먹었어?” hamda “어디에 가니?” kabi salomlashishdan maqsad nima?



“밥 먹었어?” va “어디에 가니?” savollari rostdan ham qiziqqanidan bergen savol bo‘lganmi?

Koreys tilida “안녕하세요?” deb salomlashish odatiy hol. Biroq, koreyslarning turli xil salomlashuvini uchratish mumkin. Qadimdan madaniy jihatdan taomga qiziqlishi yuqori bo‘lgan koreys xalqida taom bilan bog‘liq savollar orqali ham salomlashish turlarini uchratish mumkin. Hamda qayerga ketyapsan deb ham so‘rash koreys xalqida odatiy holdir. Bunday salomlashuvdan maqsad nima yeganingiz va qayerga ketayorganingizni bilish emas. Bu koreys xalqining madaniy o‘ziga xosligidir.

Salomlashishda ohang ham muhim o‘rin tutadi.



Rostdan ham qayerga ketayotganini so‘ramoqchi bo‘lganda “어디” so‘ziga urg‘u tushirib, “어디 가요?” ko‘rinishida savol bilan murojaat qilish kerak. Agar salomlashish ma’nosida so‘ralsa unda urg‘u “어디” so‘ziga tushmaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

- 밥 먹었어요? Ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
- 어디 가요? Ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
- Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

2. 약속인 듯 아닌 듯, 이것도 인사

BUNI VA'DA DEB QABUL QILISH MUMKINMI? BU HAM SALOMLASHISHNING BIR KO'RINISHI

왕린: Yunjong (언니) opa!

윤정: O, Vanglin!

왕린: Opa, ko'rishmaganimizga ham ancha bo'libdi. Yaxshi yuribsizmi?

윤정: Rahmat, yaxshi. Senchi? Men bugun juda band edim. **Bir o'tirib, choy ustida suhbat quramiz.** (우리 나중에 밥 한번 먹자)

왕린: Ho'p. Unda kutaman.

Bir haftadan so'ng... Birga ovqatlanamiz deb taklif qildi, biroq hanuz darak yo'q ...



왕린 maktabda yuqori sinf o‘quvchisi 윤정 ni tasodifan uchratib qoldi. Ular oxirgi marotaba ko‘rishganiga qancha vaqt bo‘ldi? 윤정 chet elda o‘qib kelganiga chamasi bir yildan sal oshdi. Biroq, 윤정 bandman deb aytib, 왕린 ga keyinroq bir ko‘rishib, ovqatlanishligi haqida gapirdi. O‘zim xabar beraman deb ketgan 윤정 sovuqqon ko‘rindi. 왕린 chindan ham 윤정 ning chet eldagil o‘qishi bilan qiziqqan va u bilan suhbat qurmoqchi edi. 왕린 shundan so‘ng 윤정 ning qo‘ng‘irog‘ini kutdi, biroq xabar bo‘lmadi. 왕린 o‘ylab qarasa, “밥 한 번 먹자” deb, keyin aloqaga chiqmaydigan koreyslar ko‘pga o‘xshaydi. Koreyslarning bunday gapirishi va’dami yoki ...?



Nega koreyslar “밥 먹자” deb qayta aloqaga chiqishmaydi?

.....

Odatda koreyslar xayrlashuv chog‘ida turli xil xayrlashuv ifodalaridan foydalanadilar. Ayniqsa yetarlicha suxbat qurolmagan insolarga nisbatan “다음에 밥 한 번 먹자” deb gapirishadi. Lekn buni haqiqatda ovqatlanishga taklif ma’nosida tushunish xató hisoblanadi. Boshqa safar imkoniyat tug‘ilsa ko‘rishib, suxbalashish tushuniladi. Chindan ham birga ovqatlanish istagi bo‘lsa, aniq kuni, manzili va vaqt vaqti belgilanadi.



Yozayotganda so‘zlarning oraliq intervaliga ehtiyyot bo‘ling!

“다음에 한번 먹자” hamda “나중에 한번 보자 ” kabi so‘zlarni telefon yoki pochta orqali xabar yuborayotganingizda 한 번 so‘ziga ehtiyyot bo‘ling. Bu marta sonini bildiruvchi “bir marta” emas, balki “imkoniyat mavjud bo‘lganda” degan ma’noni anglatadi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 다음에 밥 한 번 먹자 Ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. 나중에 한번 보자 Ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

3. 온 줄 알면서 왜 묻지?

Kelganimni bilib turib nega so‘radi?

왕린: 정아}, mashinalar ko‘p bo‘lgani uchun men 20 daqiqaga kechikishim mumkin. Uzr so‘rayman.

정아: Unday bo‘lsa kitob o‘qib turaman...

Birozdan so ‘ng...

정아: **Keldingmi?** (왔어요?)

왕린: Hmm, kech qolganim uchun ancha jaxli chiqqanga o‘xshaydi. Nega “**keldingmi?”**/ 왔어요? – deb so‘radi?



왕린 (Xitoylik talaba qiz) shu kunlarda almashinuv dasturi bo'yicha Koreyada o'qishni boshlagan. Haftada ikki marotaba koreys dugonasi 정아 bilan koreys va xitoy tillarini birgalikda o'rganishadi. Tilni tengdosh dugonasidan suhbatlashish orqali o'rganish juda ham zavqli. Bugun ham 정아 bilan uchrashadigan kun edi. 왕린 hayajonli va yorqin xotiralarga to'luvchi bu kunni kutgandi. Avtobusda va'dalashilgan manzilga yo'l olgan 왕린 yo'l-transport hodisasi tufayli tirbandlikka tushib qoladi. Vaqt o'tgani sayin manzilga kech qolishini aniq his etgan 왕린 uzr so'rab xabar yozishni o'ylaydi. Xabar yuboradi ham... birozdan so'ng avtobus bekatda to'xtaydi va 왕린 va'dalashilgan manzil tomon yuguradi. 왕린 kelganini ko'rgan 정아 “왔어요?” deb so'raydi. Shunda 왕린 hech nimaga tushunmay qoldi. 정아 ni jahli chiqdimi? Yoki xabarni ko'rmadimi?



“왔어요?” bunday savol koreys mentalitetida nimani anglatishi mumkin?

.....

Yuqoridagi vaziyatda “왔어요?” - bu kutilayotgan inson kelganini payqaganini ko‘rsatadigan ibora va “*Kelganingiz uchun rahmat*”, “*Yaxshi yetib keldingizmi?*” degan ma’noni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, ba’zilar “왔어요?” deyishadi-da, undan so‘ng “*오느라 고생했어요?* – *Kelishingda qiyalmadingmi?*”, “*올 때 길이 많이 막혔지요?* – *Kelishingda yo’llar ancha tirband bo‘lgan bo‘lsa kerak?*” kabi savollar berish holatlari ham kuzatiladi. Bu suhbatdoshga nisbatan bo‘lgan hurmatni ifoda etuvchi nutqiy etiket qoidalaridan biridir. 왕린 kabi kech qolgan do‘stlar kechirim so‘zлari bilan bir qatorda kutgan insonga “늦었지? – Kech qoldim, to‘g‘rimi?”, “많이 기다렸지? – Sizni ko‘p kuttirdim, uzr” - deya, hijolatda ekanligini bildiruvchi so‘zлarni ham qo‘shib aytishlari mumkin. Shu kabi so‘zлar bilan uzr so‘ralsa, suhbatdoshga belgilangan vaqtdan ko‘proq kutgani uchun hurmatni ifoda etgan bo‘ladi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 왔어요? Ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. 어디 가요? Ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

4. 반가움의 표현, 우연을 강조하기

Zavqlanishni ifodalash, tasodifni ta’kidlash

윤정: Ooo, kimlarni ko‘ryapman?

왕린: Salom.

민아: Salom, bu yerda **nimalar qilib yuribsiz?** (웬일이세요?)

윤정: Hammamiz uchrashgan joyimizni qarang. Sizlar **nima ish bilan yuribsizlar** bu yerda? (어쩐 일이야?)

왕린: **Nima qilyapsan?** (웬일?), **Nima ish bilan yuribsan?** (어쩐 일이?) Bularni bari nima degani ekan-a?

윤정: Senga nima bo'ldi 왕린, tinchlikmi?

왕린: Ha, yuqoridagi savollar oddiy savollar emas, salomlashishning bir turi ekan! Oh-ho, salomlashish usullariga yana bir usul qo'shildi!



왕린 va 민아 Shinchonga aylanishga borishgan edi. Dam olish kuni bo'lgani uchun Shinchonda odamlar ko'p edi. Shinchonni "Yoshlar ko'chasi va naq savdoning jannati! – deb aytish mumkin. 왕린 va 민아 ko'chada xursand bo'lib, turli narsalarni ko'rib, mazali taomlar yeyayotib, rastalarni tamosha qilayotganida maktabning yuqori sinfida o'qiydigan 윤정 ga duch kelishdi. Shunchalik gavjum Sinchonda tanish odam bilan uchrashish juda hayratlanarli edi, uchovlon qo'l ushslashdi va bir-birlari bilan xursandchilik bilan salomlashishdi. Biroq, 윤정 ga "Salom" deb kutib olgan 왕린 dan farqli o'laroq, 민아 윤정 ga qarab "웬일/ nima bo'ldi?" deya savol bilan yuzlandi. 윤정 esa javoban "어쩐 일/ nima ishlar bilan

yuribsan” degan savol bilan javob qaytardi. Eh..., endi bu nimani anglatarkin? - deya 왕린 ni boshi qotdi.



Koreyslar odatda tasodifan uchratib qolgan yaqin insonlarga qanday murojaat qiladilar?

- ❖ 안녕하세요? Salom.
- ❖ 어머, 여긴 웬일이에요? Ooo, bu yerda nimalar qilib yuribsiz?
- ❖ 여긴 어쩐 일이에요? Bu yerda nima ishlar bilan yuribsiz?
- ❖ 이야, 이런 데서 다 만나네요. I-ya, hammamiz bir joyda uchrashganimizni (Jamoat jamku!).

Biz ko‘pincha tasodifan tanish insonlarga duch kelamiz. Bunday hollarda suxbatdoshga o‘zini do‘stona yoki xursandchiliginu ifoda etuvchi qanday so‘zlardan foydalinish mumkin? Uchrashuvni aynan tasodif ekanligini anglatuvchi ifodalar yuqoridagi 2- va 4- jumlalarda keltirilgan. 웬일이에요? va 어쩐 일이에요? aslida bu kishini sarosimaga solib qo‘yuvchi savol emas, balki kishilarning tasodifan uchrashib qolganida xursandchilik ifodasidir. “어머 / Ooo”, “이야 / I-ya” kabi ifodalarni qo‘llash esa sizni suhbatdoshga bo‘lgan samimiyatingiz ifodasidir. Kattalarga esa “만나네요” o‘rniga uning hurmat shakli “뵙네요” dan foydalangan ma’qul.



Tasodifan ko‘rishib qolganda qo‘llanuvchi ifodalar

어떻게 이런 데서 다 만나냐?
Uchrashgan joyimizni qarang

이게 누구야?
Kimni ko‘ryapman?

여긴 웬일이야?
Bu yerda nimalar qilib yuribsiz?

여긴 어쩐 일이야?
Bu yerda nima ishlar bilan yuribsiz?

세상 참 좁네. 널 여기서 다 보네.

Dunyoning torligini. Seni bu yerda uchratganim.

여시거 만날 줄은 생각도 못 했다.

Bu yerda uchrashishimizni tasavvur ham qilmagandim.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotda tasodifan uchratib qolgan insonga qanday murojaat qiladilar?
2. 이게 누구야? Ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

5. 관심을 표현하며 인사하기

Qiziqishni bildirish orqali salomlashish

왕린: 윤정 opa, salom. Ko‘rishmaganimizga ham ancha bo‘ldi. Ta’tilni yaxshi o‘tkazdingizmi?

윤정: Rahmat, yaxshi. **Yuzing yanada go‘zallashibdi. / Ko‘rinishing a’lo darajada.** (얼굴 좋아졌다-aslida yuzing yaxshilanibdi)

왕린: (*O‘zicha, Ichida*) Nima?! Maqtagini-ku yaxshi, kayfiyatim ko‘tarildi... Biroq u meni plastik jarrohlik qilgan degan noto‘g‘ri tushunchaga bormagan bo‘lsa kerak.



Ta'til tugagach darslar ham boshlandi. 윈린 ta'til vaqtida ko'rishmagan 윤정 bilan ma'ruzalar xonasida ko'rishdi. 윤정 윈린 ga yaqinlasharkan, xursand holda “이야, 너 얼굴 좋아졌다! - Yuzing yanada go'zallashibdi/Ko'rining a'lo darajada!” deb ko'rishdi. 윤정 ning bu so'zlaridan 윈린 xijolat bo'ldi. Bu ham koreys madaniyatida salomlashishning bir ko'rinishimi?



Uzoq muddat ko'rishmagan insonga “얼굴 좋아졌다” kabi ifoda bilan yuzlanish bu ham koreys madaniyatida salomlashning bir turimi?

Uzoq muddat ko'rishmagan inson bilan salomlashishning turlicha ko'rinishlari mavjud. 오랜만이야 – ko'rishmaganimizga ancha bo'ldi, 그 동안 잘

지냈어요? – *yaxshi yuribsizmi?* ko‘rinishdagi ifodalar ko‘p uchrasa-da, 얼굴 좋아졌네 – *ko‘rinishingiz yaxshi* (*to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima - yuzingiz yaxshilandi*), 예뻐졌네 – *yanada go‘zallashibsiz* kabi ifodalardan ham foydalaniladi. Bunday iborani tashqi ko‘rinishga iltifot emas, balki suhbatdoshga nisbatan yaxshi niyatni ko‘rsatadigan salomlashish deyish mumkin. Bundan tashqari koreyslar 안색이 안 좋아 보인다 – *ko‘rinishingiz yaxshi emas*, 무슨 일 있어요? – *nima bo‘ldi?* kabi savollar orqali suhbatdoshiga nisbatan o‘z qiziqishini bildirayotganini anglatadi.



O‘z qiziqishini ko‘rsatishni xohlaganda qo‘llanuvchi ifodalar

- 이게 얼마만이야. 왜 이렇게 예뻐졌어? 몰라보겠다.
Qancha vaqtlar o‘tib ketdi? Bunchalar go‘zalsan. Tanimay qoldim.
- 안색이 안 좋아 보여. 무슨 일 있어?
– *Ko‘rinishingiz yaxshi emas. Nima bo‘ldi?*
- 뭐 안 좋은 일 있어? 표정이 어둡네.
– *Biror noxush ish bo‘ldimi? Qovog‘ingizdan qor yog‘yapti.*

Nazorat savollari va topshiriq

1. 안색이 안 좋아 보인다? Ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Koreyslar muloqotida tasodifan uchratib qolgan insonga qanday murojaat qiladilar?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

6. 전화를 끊을 때 인사 대신 이렇게!

GO‘SHAKNI QO‘YAYOTIB XAYRLASHISH

왕린: 민아, menga shu faylni elektron pochta orqali yubora olasanmi?

민아: Tushundim, yubordim. Bir tekshirib ko‘rchi.

왕린: Ha yetib keldi. Rahmat. Keyinroq kechki ovqatda ko‘rishamiz.

민아: Mmm. 응...응... (go'shakni qo'ydi)

왕린: 민아! nega xayrlashmasdan go'shakni qo'yib qo'ydi? Yoki men xato gapirdimmikin?



Bugun shoshilib hisobot yozishi kerak bo'lgan, koreys tilisi hali mukammal bo'lmanish so'zлari ko'p bo'lgani uchun tonggacha lug'at bilan ishlab chiqqan 王린 kompyuterda hisobotni zo'rg'a yozib tugatdi. Tongda ko'zi ilingan 王린 uqlab qolib, ishga shoshilgancha chiqib ketadi va tonggacha tayyorlagan hisobotlarini olib ketish yodidan chiqadi. Muhim hisobot uyda qolganidan xavotirlangan 王린 uyda xonadoshi 민아 borligi yodiga tushib, biroz ko'ngli ko'tariladi. Shunda 王린 민아 ga qo'ng'iroq qilib, hisobotlarini elektron pochta orqali yuborishini iltimos qiladi. Rahmat, minnatdorman - deya 王린 bir necha marotaba

민아 ga minnatdorchilik bildiradi. Unga javoban 민아 hech narsa demay shunchaki go'shakni qo'yib qo'yadi. Nega? Yoki noto'g'ri gapirdimmikan deya 왕린 o'ylanib qoladi?



Hech narsa demasdan go'shakni qo'yish mumkinmi?

.....

Koreys madaniyatida 응, 응 *mm, mm* kabi tovushlar telefon go'shagini qo'yayotib xayrlashish sifatida qo'llaniladi. Xayrlashishning bunday korinishi ish va h.k. joylarda 안녕히 계세요 – *yaxshi qoling* hamda 그럼, 끊겠습니다 – *go'shakni qo'yaman* kabi xayrlashishning rasmiy uslubidan ko'ra yaqin insonlar orasida “응, 응” *hm, hm* kabi ifodalar ishlatiladi. “응, 응” *hm, hm*, 그래, 그럼 – *yaxshi, unda* kabi ifodalarning nutqda qo'llanishi suhbatga yakun yasalishini anglatadi.

Shuningdek, xayrlashishda 들어가 – *kiring* yoki 들어가세요 – *kiraqoling* kabi ifodalardan foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Bu aslida biror joyga borishingiz kerakligini anglatmay, balki telefon go'shagini qo'yayotganda xayrlashishning bir ko'rinishidir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 그럼, 끊겠습니다 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Koreyslar muloqotida go'shakni qo'yganda asosan qanday ifodalardan foydalilaniladi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

7. 병문안 갔을 때는 이렇게!

BEMORNI YO‘QLAB BORGANDA

이 대리: Endi ishlaringizni tugatib, ketishga tayyorlanib turing. Bugun janob
김 ni ham ko‘rib kelishimiz kerak. Nechanchi xonada yotgan edilar?

직원: 609-xonada.

Janob 김 ni xonasida: Boshliq, yaxshimisiz?

김 과장: Bu nima?

Arzirli hech narsa emas.

Nimalar deyapti? Salomlashish kerakmasmidi?

Boshliq 김 tezroq sog‘ayib keting.

Bo‘lim boshlig‘i: Nimalar deyapti? Ehtiyotkorona gapisish kerak ...

Ha-a-a, shunday gapisish kerak ekan-da.

Sizlarni shu yergacha kelishga majbur qilganim uchun uzr so‘rayman.

(여기까지 오시게 해서 죄송해요) Hozir ahvolim ancha yaxshi.



Boshliq Kim avtohalokat sabab shifoxonaga yotqizilgan. Kechagina hammasi yaxshi edi... Bu xabarni eshitgan hamkasblar shifoxonaga undan xabar olgani borishga qaror qilishdi. Ishdan so‘ng, Jeyms va boshqa hamkasblar mayda-chuyda olib shifoxonaga yo‘l olishdi. Boshliq Kimni xonasiga barcha yig‘ilganida hamma birma-bir salomlashishni boshladi, qanday salomlashish kerakligini bilmagan Jeyms sarosimaga tushib qoldi. Shifoxonada davolanayotgan bemorga “안녕하세요?” deb salomlashish mumkinmi?



Bemor ko‘rishga borilganda qanday salomlashish kerak?

Bemor ko‘rishga borilganda eng ma’qul salomlashish, ko‘ngil so‘rash so‘zlar qaysilar ekanini bilasizmi? “올른 나으세요” – *Tezroq tuzalib keting*, “꽤차하세요” – *tezroq tuzalib keting*, “금방 회복하실 거예요” – *Tezda tuzalib ketasiz* kabi o‘zida

ijobiy ottenkalarga ega ifodalar bilan murojaat qilingani ma'qul. Shuningdek, yozma xabar bilan tuzalishga bo'lgan tilagingizni ifodalamoqchi bo'lsangiz, “**빠른 쾌유를** – *Tezroq tuzalib ketishingizni tilayman* kabi ifodadan foydalanishingiz mumkin. Bemor ko'rishga borgan kishi “**어떠다 그랬어요?**” – *Bu qanday sodir bo'ldi?*, “**조심하지 그랬어요**” – *Ehtiyot bo'lisingiz kerak edi* kabi o'zida xavotir hissi bo'lgan ifodalardan ham foylanishi mumkin. Shu bilan birgalikda bemor va uning oilasi ulardan xabar olgani kelgan kishilaga nisbatan “**여기까지 오시게 해서 죄송해요**” *Sizlarni shu yergacha kelishga majbur qilganim uchun uzr so'rayman* kabi ifodadan foydalanishlari mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotida bemor ko'rishga borilganda asosan qanday ifodalardan foydalaniadi?
2. 금방 회복하실 거예요, 쾌차하세요 ifodalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

8. 많이 준비했지만 아닌 것처럼

ASTOYDIL TAYYORGARLIK KO'RGAN BO'LSA HAM XUDDI HECH NIMA QILMAGANDEK

김 과장: Barchangiz bugun janob Lining uyida uy to'yi ekanligidan xabaringiz bor a? Tezroq bo'laqoling.

직원들: Xo'p janob.

이 대리: Nimalarga buncha ovora bo'lib yuribsizlar?

직원: **Arzirli hech narsa emas.** (별거 아니에요.) Shunchaki boy bo'ling deb!

제임스: Nima? Boy bo'ling?

이 대리: Tayyorlangan taomlar ko'p bo'lmasa-da, yoqimli ishtaha.

김 과장: Rahmat.

제임스: Taomlar juda ko'p, ammo, taomlar deyarli tayyorlanmagan dedimi?



Hamkasblardan biri bo‘lgan janob Li yaqinda yangi uyga ko‘chgan. Jamoaviy ishga kelsak, bu jamoa hech qaysi jamoadan kam emas. Janob Li Jeyms va boshqa hamkasblarini uy to‘yi (집들이) ga taklif qildi. Jeyms hamkasblari bilan janob Liga sovg‘a sotib olishdi va janob Lining uyiga borishdi... Uy to‘yi sovg‘asi esa bir o‘ram qog‘oz sochiq va kir yuvish kukuni edi. Jeymsga sovg‘a sifatida maishiy buyumlarni sovg‘a qilinishi bir oz g‘alati tuyulsa-da, bu holat unga qiziq edi. Biroq, yanada qiziq tuyulgan holat esa, dasturxon ustida turli-tuman noz-ne’matlar bo‘lishiga qaramay, janob Li 차린 게 별로 없다 – *tayyorlangan taomlar ko‘p emas / yaxshi tayyorgarlik ko‘ra olmadim degan gapi bo‘ldi*. Hamda 차린 게 별로 없지만 많이 드세요 – *noz-ne’matlar ko‘p bo‘lmasa ham yoqimli ishtaha* (많이 드세요 – *to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi ko‘p yeng*). Jeymsga bunday qarama-qarshi gaplar juda qiziq tuyuldi.



Uy to‘yiga taklif qilinganda qanday tabrik so‘zlaridan foydalanish kerak?

.....

Koreyslar odatda uy to‘yiga oshxona jihozlarini yuvish vositalari, kir yuvish vositalari, qog‘oz sochiq kabi maishiy vositalarni sovg‘a sifatida olib boradilar. Ularning ramziy ma’nolari bo‘lib, kir yuvish vositlaridagi ko‘pik singari boy bo‘lish, qog‘oz sochiqlarning yengil ochilishi singari barcha ishlarining oson hal bo‘lishi kabi ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday sovg‘alarni qabul qilgan uy egasi “이런 걸 다 사 오셨어요?” - *Nimalarga buncha ovora bo‘lib yuribsizlar?* degan iltifotiga binoan sovg‘a berayotgan kishi “별거 아니에요” – *Arzirli hech narsa emas deya o‘zaro kamtarlikni anglatuvchi ifodalaridan foydalanadilar.* Bunday ifodalar orasida yana shunday kamtarlik ifodasi ham bor-ki, mezbon mehmonlar uchun juda ko‘plab noz-nematlarga to‘la dasturxon tayyorlagan bo‘lsa-da, “차린 게 별로 없지만 많이 드세요” – *Ko‘p yegulik tayyorlay olmagan bo‘lsam-da, qani, ovqatdan oling* (많이 드세요 – to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi *ko‘p yeng*) / *yoqimli ishtaha* kabi iboralarni aytadilar. Bu ham kamtarona ifoda hisoblanadi. Buni eshitgan mehmonlar “잘 먹겠습니다” – *Men yaxshi ovqatlanaman/mazza qilib ovqatlanaman, ya’ni, rahmat* kabi ifoda bilan javob qaytarishi lozim.

Koreyslar madaniyatida “많이 드세요” – *ko‘p ovqatlaning, ya’ni yoqimli ishtaha* deyilganda “잘 먹겠습니다” *yaxshi ovqatlanaman/mazza qilib ovqatlanaman, ya’ni, rahmat* deb javob qaytariladi. Va ovqatdan so‘ng “많이 먹었습니다” – *ko‘p ovqatlandim/yedim* kabi ifodalardan foydalanish ovqat mazali tayyorlanganligi ma’nosini bildiradi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 차린 게 별로 없지만 많이 드세요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. 잘 먹겠습니다, 많이 먹었습니다 ifodalari qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

9. 오른에게는 하지 말아야 인사 KATTALARGA QO'LLAB BO'L MAYDIGAN SALOMLASHUV

김 과장: Ish vaqt ham tugab qoldi. Ishlarni yakunlagan xodimlar ketishi mumkin.

제임스: Unda men ketdim...

김 과장: Shundaymi...

제임스: O'rtoq boshliq, siz ketmaysizmi?

김 과장: Ha, men ham tez orada ketaman. Sen ketaver.

제임스: Unda men ketdim, yaxshi qolinglar.



Vanihoyat ish vaqtı tugadi! Boshliq xodimlarga ishlarini yakunlaganlar ketishi mumkinligi haqida aytgandi hamki, Jeyms narsalarini astoydil yig‘ishtirib, ketishga tayyorgarlik ko‘rdi. Jeyms boshliqqa borib, “수고하세요. 먼저 가보겠습니다” – *Yaxshi ishlang / charchamang, men ketdim* – deb xayrlashib ketdi. Koreys nutqiy odob qoidasiga binoan boshini egib, ta’zim qilgan holda xayrlashib ketsa ham odob qoidalari birinchi navbatda turadi. Shunday ekan, nega barcha kului? Barcha Jeymsga qaradi. Jeyms esa gapirgan gapida nimadir xatolikka yo‘l qo‘ygani haqida o‘yladi.



Boshliqqa 수고하세요 deb murojaat qilish mumkinmi?

• •

Yoshi katta yoki lavozimi yuqori bo‘lgan insonlarga “수고하세요” kabi so‘zlarni qo‘llamagan ma’qul. 수고하다 so‘ziga ahamiyat berilsa, uning negizida “mashaqqat cheking”, “azob cheking” kabi ma’nolar mujassam. Shuning uchun kattalarga bu ifodani qo‘llash odobsizlik hisoblanadi. Yuqoridagi holatda “먼저 가보겠습니다” – *Men boraqolay (aslida : Sizlardan avval ketyapman, uzr)*, 안녕하세요 – *Yaxshi qoling* hamda 먼저 가서 죄송합니다 – *Sizlardan avval ketyapman, uzr* kabi ifodalardan foydalangan ma’qul.

Nazorat savollari va topshiriq

- 수고하세요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
- 먼저 가 보겠습니다 ifodalari qanday ma’noni anglatadi?
- Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

10. 질문일까? 인사일까? SAVOLMI? SALOMLASHISHMI?

제임스: Assalomu alaykum, xo‘jayin.

직원 : Xo‘jayin keldingizmi?

김 과장: **Hammasi joyidami? Muammo yo‘qmi? (별일들 없지요?)**

제임스: Ba'zi muammolar bor... Avvalam bor, muammo shundaki, iste'mol bozoriga chiqargan tovarlarimizda ba'zi muammolar mavjud ekan. Iste'molchilardan ham bir qator savollar kelgan edi. Eng birinchilardan bo'lib hal qilishimiz kerak bo'lган muammo, bu ...

직원: Jeims, bu vaziyat haqida keyinroq bat afsil yetkazamiz. Xo'jayin endigina keldilar axir...



Tongda ishga barvaqt kelib, ishlarini boshlagan Jeims... U har doim koreys tilini g'ayrat bilan o'rganib, ishlarini ham puxta bajaradiganlardan. Soat 9 lar atrofida edi. Boshliq ofisga kirib keldi va xodimlar bilan salomlashdi. Yuqoridagi suhbatda boshliq Jeims va uning hamkasblari bilan salomlashganda axir o'zi 별일들 없지요 – *Hammasi joyidami? Muammo yo 'qmi deb so'ramadimi?* Jeims boshliqning 별일 없어요? degan savoldidan so'ng majlisda aytmoqchi bo'lган gaplarni

kutilmaganda aytib yubordi. Boshliq hamda hamkasblar esa shu zaxotiyoy unga boshdan oyoq qarashdi. Nima deb o‘ylaysiz, nega shunday qarashgan ekan?



별일 없어요? - degan savolning asl mohiyati nima?

.....

별일 없지요? Ifodasi ham aslida salomlashuvning bir ko‘rinishi. Bu kabi ifodadan foydalangan inson aslida suhbat jarayonida biror muammo bor yoki yo‘qligi haqida chindan qiziqib so‘raganligini anglatmaydi. Bunday ifoda ish joyida qo‘llanilsa odatda so‘zlovchi o‘zidan lavozimi quyi bo‘lgan ishchilarga yoki lavozimi teng bo‘lgan hamkasblariga nisbatan qo‘llash mumkin. Aksincha, yuqori lavozimdagagi insonlarga qarata bu ifodadan foydalanish odob me’yorlariga zid hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 별일 없어요? ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. 먼저 가 보겠습니다 ifodalari qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

11. 오랜만에 만났을 때는 이렇게! UZOQ VAQTDAN KEYIN UCHRASHGANDA



Biz uchrashganimizga ham ancha bo'ldi? So'nggi bor qachon ko'rishgandik?

Xeongni nikoh to'yida ko'rishgandik, uchrashmaganimizga ham 1 yildan oshibdi.

Ha, shunday. Haqiqatda ham ancha bo'libdi.

Ancha vaqtadan keyin uchrashganda so'nggi uchrashuv vaqtini eslaganda 꽤 됐다 – *ancha bo'ldi*, 1 년이 넘었다 – *bir yildan oshdi* kabi ifodalardan foydalaniladi.



Ko'rishmaganimizga ham ancha bo'libdi. Uch yilcha bo'ldi, shundaymi?

Ha, shunday. Darrov uch yil bo'libdi.

Bu kabi holatlarda suxbatdoshlar 삼 년 됐다 – *uch yil bo'ldi* kabi ifodadan so'nggi uchrashganiga qancha vaqt bo'lganini eslaganda foydalanadi.



Ko'rishmaganimizga ham ancha bo'libdi. Nega yo'q bo'lib ketding? (Aslida, yuzingni ko'rish qiyin bo'lib ketdi) – 얼굴 보기 가 힘들어

Ha, shu vaqt ichida aloqaga chiqmaganim uchun uzr. Ish joyimni o'zgartirganidan so'ng bir oz band bo'lib qoldim.

Bu vaziyatda suxbatdoshlar uzoq muddatdan so‘ng ko‘rishib qolganida “왜 이렇게 얼굴 보기 힘들어?” *Yuzingni ko‘rish qiyin bo‘lib ketdi/ Nega yo‘q bo‘lib ketding? Ko‘rinmay qolding hamda* 요즘 왜 이렇게 바빠? *So‘nggi paytlarda nega bunchalik bandsan?* kabi savollar uzoq vaqt mobaynida ko‘rishmagan insonlar orasida tez-tez ishlatib turiladigan ifodalardan biridir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotida insonlar uzoq vaqtdan keyin uchrashganda qanday ifodalardan foydalanadilar?
2. 얼굴 보기 힘들어 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

12. 헤어질 때는 이렇게!

XAYRLASHAYOTGANDAGI IFODALAR

1. 그럼, 또, 봐 – *Unda, yana korishamiz.*

그래, 또 연락하자 *Ha, yana xabarlashamiz.*

Insonlar xayrlashayotganda keyingi safar yana uchrashamiz yoki xabarlashamiz tarzidagi ifodalardan foydalanadilar. Agar suxbatlashayotgan inson yoshi yoki lavozimi jihatidan so‘zlovchidan katta bo‘lsa, u holda «다음에 또 뵙게요» ya’ni, 보다 *ko‘rmoq fe’lining hurmat shakli* 뵙다 dan foydalanish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtdan keyin uchrashganda ham qo‘llash mumkin bo‘lgan ifodalar.

별일 없지(요)? Ya’ni, “*Hammasi joyidami, muammo yo‘qmi?*” ifodasidan insonlar uzoq vaqtdan so‘ng ko‘rishganda ham foydalaniadi. *Hech bir muammosiz, noxush ishlarsiz yaxshi, sog ‘-salomat yuribsizmi* degan ma’noni anglatuvchi ushbu ifoda suxbatdoshga qaratila aytilganda, javoban “덕분에 잘 지내고 있어요” *sizning sharofatingiz bilan yaxshiman* kabi javob beriladi. Yoshi katta insonlarga esa 별일 없지(요)? ifodasidan ko‘ra “그동안 별고 없으셨지요?” ifodasidan foydalangan ma’qul.

2. 오늘 열굴 봐서 좋았어 – *Bugun yuzingni ko‘rganim yaxshi bo‘ldi. Aslida, seni ko‘rganim yaxshi bo‘ldi.*

나도 오늘 정말 즐거웠어 – *Men ham bugun ko‘rganimdan xursandman.*

Bugun ko‘rganimdan xursandman ifodasi insonlar xaylashayotganda xayrlashuv so‘zlari o‘rniga foydalaniladi.

3. 난 이만 가 봐야 할 거 같아. 먼저 일어날게 – *Men endi ketishim kerak. Sizlardan oldin turaman.* (Aslida, menga ruxsat tarzida tarjima qilish mumkin.)

Bir necha kishi yig‘ilib o‘tirganda boshqalardan avval turmoqchi bo‘lganida 가야 한다 – *ketishim kerak* kabi ifoda bilan turilishi kerak. 저 먼저 일어날게 – sizlardan oldin turaman - menga ruxsat yoki 그럼 저는 볼일이 있어서 – ishlarim bor edi kabi ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotida xayrlashayotganda odatda qanday ifodalardan foydalaniladi?
2. 오늘 열굴 봐서 좋았어, 난 이만 가 봐야 할 거 같아. 먼저 일어날게 ifodalari qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

13. 어색한 상황에서 말문 열기 **NOQULAY VAZIYATLARDA GAP BOSHLASH USULI**

1. 안녕하세요? 날씨가 많이 따뜻해졌지요? *Salom. Bugun havo iliq ekanmi?*

Noqulay vaziyatlarda ob-havo haqida so‘z ochilsa gap boshlash ancha oson bo‘ladi.

2. 안녕하세요? Assalomu alaykum

안녕하세요? Assalomu alaykum

얼마 전에 휴가 다녀오셨지요? 어디로 다녀오셨지요?

Yaqinda xizmat safaridan keldingiz, shundaymi? Qayerga borib keldingiz?

안녕하세요? Assalomu alaykum kabi salomlashish ifodasidan so‘ng gapni nimadan boshlashni bilmaganda dam olish, xizmat safari kabi va h.k. holatlar bo‘yicha suxbatdosh bilan suxbat boshlash mumkin bo‘lgan holatlardandir.

3. 어제 축구 경기 보셨어요? *Kecha futbol musobaqasini ko‘rdingizmi?*

그럼요. 퇴근 후 직원들이 다 같이 봤어요. Albatta. Ishdan so‘ng hamkasblar birga tamosha qildik.

Odatda dunyoda ma’lum bir sport turi bo‘yicha, masalan, olimpiada yoki jahon championati musobaqalari bo‘lib turgan bo’lsa, suxbatni aynan shundan boshlash ham mumkin.

4. 어서 오세요. 우리 회사 방문은 처음이지요? Hush kelibsiz. Firmamizga ilk bor tashrif buyurishingizmi?

안녕하세요? 네, 회사 위치가 아주 좋네요. 뒤에 산도 있고. Assalomu alaykum. Ha, firmangiz juda chiroyli joyda joylashgan ekan. Orqa tarafda hatto tog‘ ham bor ekan.

Shuningdek, siz tashrif buyurgan joy, kafe va restoranlar haqida gapirib ham noqulaylikni yengish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar noqulay vaziyatlarda odatda qanday ifodalardan foydalanadilar?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

14. 인사말에 이런 의미가 **SALOMLASHISHNING MA’NOLARI**



Qadimda Koreyada urush yoki tabiiy ofatlar sababli bir kechaning o‘zidayoq ko‘p insonlar halok bo‘lishi mumkin edi. Shuning uchun tongda kishilar bir-birini uchratganda tun osuda va tinch o‘tganligini so‘rash maqsadida “밤새 안녕하셨어요?” tuningiz osuda/yaxshi o‘tdimi? deb salomlashilgan. Urushsiz va tibbiyot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda bunday ko‘rinishdagi salomlashish usuli yo‘qolib, 안녕하세요? Salomlash ko‘rinishigina saqlanib qolingga.



Mo‘g‘ullar 가축들은 잘 지내고 있습니까? *Chorva mollaringiz yaxshimi?* 여름을 잘 보냈습니까? *Yozni yaxshi o‘tkazdingimi?* 겨울을 잘 보냈습니까? *Qish yaxshi o‘tdimi?* kabi ifodalar orqali salomlashishgan. Mo‘g‘ulistonda chorva mollari ko‘p boqilgani sababli yoz faslida o‘t-o‘lanlarning serob bo‘lishi jonivorlarning vazn yig‘ishiga zamin yaratishi, qishda esa sovuqda jonivorlarning salomatligini so‘rash kabilar ushbu xalqning mavsumiy salomlashishlari bo‘lgan.



Hindlarning dini induizmdir. Ularning salomlashuvi 나마스테 bo‘lib, 나마스테 so‘zi Sanskrit tilidan “Men oldingizda ta’zim qilaman” degan ma’noni anglatadi va bu suhbatdoshga bo‘lgan hurmatni ifodalaydi.



Markaziy Amerikadagi Kostarikaliklar 푸라 비다 (Pura Vida) deb salomlashadilar. Bu so‘z ispan tilida sof hayot, yaxshi hayot yoki hammasi yaxshi bo‘ladi degan ma’noni aglatadi. 군대 없는 나라 ya’ni, “armiyasiz davlat” nomi bilan mashhur bo‘lgan Kostarika 2017 yilgacha global baxt indeksida uch marotaba 1- o‘rinni egallagan. Kostarikaliklarning baxtli hayoti ularning salomlashuvida ham o‘z aksini topgan.

15. 인사할 때 동작도 다르게!

SALOMLASHGANDA HARAKATLAR HAM TURLICHA

Myanma

Fransiya

Qo'llar bukilgan holda bosh egiladi



Quchoqlashib, yuzlari navbatma-
navbat tekkiziladi



Hindiston, Nepal

Ikki qo‘li ko‘krak qismiga olib
kelinib, bosh egiladi



Malayziya

O‘ng qo‘l ko‘krak ustiga qo‘yilib,
tabassum qilinadi



16. 호감을 표현하고 싶을 때는 외모 칭찬하기**INSONLARNI TASHQI KO'RINISHINI MAQTASH**

켈리: Salom/Assalomu alaykum, Jeyms, bugun ishga erta kelibsizmi?

제임스: Ha, dam olish kunlarini yaxshi o'tkazdingizmi?

켈리: Jihe, assalomu alaykum.

지혜: Asssalomu alaykum, dam olish junlarini yaxshi o'tkazdingizmi?

.....

지혜: O! Kelli, sochingizni kestiribsizmi? Sochingizni kaltalatib, jingalak ham qildingizmi? Yuzingizni shakliga doch turmagingiz juda yarashibdi.

켈리: Haaa... Nega meni tashqi ko'rinishimga bunchalik qiziqish bildiryapti...



Dam olish kunlaridan keyin dushanba kuni ertalab ishga birinchi bo‘lib kelgan Jeyms va Kelli bir-birlari bilan salomlashdi, Uning ortidan esa ishga Jihe ketayotganini ko‘rish mumkin. Jihening ko‘z o‘ngida Kellining yangi soch turmagi gavdalandi. Jihe Kellining soch turmagi o‘zgarganini sezgandek qilib ko‘rsatishi kerak deb o‘ylardi. Biroq, Kelli uning soch turmagiga juda qiziqqan Jihedan hijolat bo‘ldi. Sababi esa, o‘tgan safar Jihe Kellining tashqi ko‘rinishini, ayniqsa yuzi kichikligini maqtagandi. Jihening Kelliga bunday e’tibor berishini uni birmuncha o‘zini noqulay his qilishga majbur qildi.



Tashqi ko‘rinish haqida bunday bat afsil gapirish qo‘pollikka kirmaydimi ?

Koreyslar ko‘pincha kimnidir yoqtirishini uning tashqi ko‘rinishini turli yo‘llar bilan maqtash orqali bildiradilar. Shuningdek, ular 잘 생기셨어요 “*chiroylisiz*” (o‘g‘il bollarga) yoki 예쁘시네요 “*chiroylisiz*” (qiz bollarga) shuningdek, kiyim yoki soch turmagi haqida gapirilganda, 이 옷을 어디서 샀어요? “*Bu kiyimni qayerdan sotib oldingiz?*” 잘 어울리네요 “*Bu sizga juda mos ekan/yarashibdi*”, 머리 하셨어요? “*Sochingizni kaltalatdingizmi/ turmakladingizmi?*” 헤어스타일 바뀌었네요 “*Soch turmangiz o’zgaribdimi*” kabi maqtov ifodalaridan foydalaniladi. Biroq, yaqin munosabatda bo‘lmagan kishilarning tashqi ko‘rinishi haqida tez-tez maqtash ularni hijolatli vaziyatlarga qo‘yishi mumkin. Shuning uchun boshqalarni tashqi ko‘rinishini maqtashda ehtiyot bo‘lish muhimdir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotida qanday maqtov usullari o‘rinsiz hisoblanadi?
2. 머리 하셨어요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

17. 외모에 대한 칭찬은 조심스럽게

TASHQI KO‘RINISH BILAN BOG‘LIQ MAQTOVLARDA EHTIYOTKORLIK SHARTLARI

부장님: Bu safargi yil yakuni yig‘ilishida vakil sifatida bir kishi qo‘shiq aytishi kerak, kimni tanlasak yaxshi ekan?

직원 1: Jeyms qo‘shiqni yaxshi kuylaydi. Men Jeymsga ovoz beraman!

부장님: Shundaymi? Jeyms janoblarining bo‘ylari baland, ko‘rinishlari chindan ham chiroyli, yana qo‘shiq ham kuylashni bilishi? Bu adolatdan emas!

Havasim kelyapti, havasim... (부럽다, 부러워...)

제임스: Hm, bu maqtovmikin? Unda men ham ...

Ho‘jayin, siz ham bo‘yingiz baland va juda kelishgansiz. Sizni ko‘rgan mashxurlar yig‘lab yuborishadi / tan berishadi.

부장님: Hmm, shundaymi...



Ishdan so‘ng kechki ovqatda hamma yig‘ilib o‘tirganda boshliq to‘satdan yil yakunidagi yig‘ilish haqida so‘z ochdi. Yil yakunlari bo‘yicha yig‘ilishda qo‘sish tanlovi ham bor bo‘lib unda katta sovrinlar o‘ynalar ekan. Aytishlaricha, tanlovda har bir bo‘limdan bittadan vakil qo‘sish aytishi kerak ekan. Jeymsning qo‘sish aytishni yaxshi ko‘rishi va qo‘sishni yaxshi kuylashini bilgan hamkasblari ziyofatda “Jeyms! “Jeyms!” deya unga ovoz berishdi. Jeymsning qo‘sishchilik mahoratini bilmagan boshliq, kelishgan Jeymsni qo‘sishni yaxshi aytishi ham mumkinligi uchun unga havas qilishini aytib, iltifot ko‘rsatdi. Jeyms boshliqdan bunday iltifot eshitib, biroz hayajonlandi va u ham boshliqning kelishganligini aytdi. Lekin bir muddat tushunarsiz holat yuz berdi. Boshqaruvchida xijolatomuz yuz ifodasini ko‘rish mumkin edi. Nega?



Boshqaruvchi nega bundan xijolat tortdi?

Koreyslar ko‘pincha o‘zgalarning tashqi ko‘rinishini tez-tez maqtashadi. 16-bo‘limda keltirib o‘tganimizdek suhbatdoshning tashqi ko‘rinishini, shuningdek uning kiyimi yoki soch turmagini ham maqtash holatlari bor. Biroq, bu iltifot iboralarini qo‘llashda ehtiyot bo‘lish kerak. Boshliqning tashqi ko‘rinishi haqida iltifot so‘zlarini aytishda o‘ta aniq iboralarni qo‘llash boshliq xodimga nisbatan odobsizlik tuyulishi mumkin. Yuqori lavozimli shaxsning tashqi ko‘rinishi haqida gapirganda, 몇 있으세요 *kelishgansiz* kabi iborani ishlatish maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar muloqotida qanday maqtov usullari o‘rinsiz hisoblanadi?
2. 머리 하셨어요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

18. 외모를 칭찬하는 재미있는 표현

TASHQI KO‘RINISHNI MAQTASHDAGI QIZIQARLI IFODALAR

Qiziqali ifodalar 1



1. Dadangiz rostdan ham ko‘rinishlari yosh ekan 동안이다 – *yosh ko‘rinmoq*
2. - Ko‘rinishim qalay? – A’lo darajada. Kim Txe I tan beradi. (울고 가겠다 – aslida *yig‘lab yuboradi*.)
3. Voooy, anavi odamlarning yuzi kaftdekkina ekan (kichkinagina ekan).

Agar siz yuqoridagi kabi iboralardan foydalansangiz, suhbat yanada qiziqarli tarzda kechishi mumkin. Suhbatdoshning yoshiga nisbatan yoshroq ko‘rinishini ifodalash uchun 동안이다 *yosh ko‘rinasi* kabi iborasidan foydalanish mumkin. Shuningdek, ajoyib ko‘rinishga ega taniqli shaxsning ismiga 000 이/가 올고 기겠다 “000 *yig‘lab yuboradi*” deb iltifot ko‘rsatish ham mumkin. So‘nggi paytlarda yoshlari kichkina yuzli insonlarni yanada chiroyli va latofatli deb hisoblab, 얼굴이 주먹만 하다 *yuzi kaftdek kichik* iborasi ham iltifot sifatida qo‘llanmoqda.

Qiziqali ifodalar 2



1. Voy, Jeyms, bugun **mashxurlarga o‘xshab qolibsiz** – (연예인 같아요)
Qayeradir ketyapsizmi?
2. – Azizim, bugun **yangi kuyovlarga o‘xshab ketibsizmi?** – (새신랑 같아요)
3. – Azizam, sen ham juda go‘zalsan.

Shuningdek, siz suxbatdoshingizni majoziy iboralar yordamida ham maqtashingiz, iltifot ko‘rsatishingiz mumkin. Odatda, ajoyib ko‘rinishga ega insonlarning ramziy ifodasi sifatida 연예인 *mashhur* yoki 모델 *model* kabi iltifotlar qo‘llaniladi. Yoshi biroz kattaroq erkakni endigina turmush qurgan 새신랑 *yangi kuyovga* qiyoslash orqali ham maqtash mumkin.

Qiziqali ifodalar 3



1. Voooy, **huddi senga tikilgandek** – (딱 네 거다)
2. Voy buni chiroyliligini. **Kutilganidek, tez sotilib ketadi.**

Do'stingiz kiyagan kiyimini ham qiziqarli usulda maqtash mumkin. Kiyim huddi suhbatdoshga moslab tikilganligini ifodalash uchun 딱 네 거다 *Bu seniki-aslida – huddi senga tikilgandek* iborasidan foydalanish mumkin. Bu nafaqat kiyim uchun, balki bosh kiyimlar, poyabzal va aksessuarlar uchun ham ishlatalishi mumkin bo'lgan iboradir. Shuningdek suxbatdoshingiz chiroylik kiyim kiyib, yanada ajralib turishini ta'kidlash maqsadida 옷이 날개다 - *kiyim senga qanot bag'ishlab turibdi* ifodasidan foydalanish mumkin.

Ana shunday qiziqarli maqtov ifodalaridan foydalanib suhbatdoshingizni kayfiyatini yanada ko'tarishingiz mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 울고 기겠다? ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
2. 딱 네 거다, 옷이 날개다 ifodalar qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

19. 크게 축하할 일이 있을 때 «한턱내»

MUVAFAQQIYAT VA YUTUQQQA ERISHGANDA한턱내

현우: Viktoriya, bu safar ming dollarlik stipendiya yutib olinsan, shundaymi?

민아: Kutganimizdek bo‘libdi, Viktoriya! Sen o‘zi har doim g‘ayrat bilan o‘qiganing uchun stipendiya ham yutding.

빅토리아: Rahmat. Lekin qayerdan bildingiz?

현우: Kafedrada hamma Viktoriyaning eng zo‘r talaba ekanligini shov-shuv qilishdi. **Endi sendan o‘tirish – 한턱내**

민아: Ha, Viktoriya! Endi ovqat olib berishing kerak – *aslida, endi o‘tirish sendan / yuvib berishing kerak.* - 밥 한 번 사야겠다.

빅토리아: Ovqat sotib olishim? Hazilmi yoki chin?



Ajoyib Viktoriya! Har doim o‘zi bilan kitob olib yuradigan va g‘ayrat bilan o‘qiydigan Viktoriya o‘z bo‘limida ham mashhur bo‘lib, o‘qishga mukkasidan berilganlardan (공부별레). Bu semestrda o‘qishdan to‘liq stipendiya olganligi

haqidagi mish-mishlar tarqaldi. Keyin esa kunlardan bir kun yangilikni eshitgan Mina va Xyonu matabda to'satdan Viktoriyaga duch kelishadi, uni tabriklaydilar va quyidagi gapni qo'shib qo'yadilar: 한턱내! – *o 'tirish sendan*. Nima dedi? Ovqat olib berish? Viktoriya Mina va Xyonu uni maqtashgani uchun ulardan minnatdor edi. Lekin ularga ovqat sotib olishdan biroz xijolat bo'ldi. O'sha paytda Mina va Xyonu rostdan ovqat yeishni xohlashdimikan?



Mina va Xyonu nega 한턱 haqida so'z ochishdi?

.....

Koreyslar odatda suhbatdoshni biror yangilik bilan tabriklashayotganda 한턱내 “*Yuvib ber/ziyofat qachon?*” yoki 밥 한번 사 “*Ovqat olib ber*” kabi ifodalardan foydalanishadi. Bu kabi tabrik so'zlarini eshitgan kishi albatta tabriklagan kishiga taom olib berishi kerakdek tuyulishi mumkin, ammo, taom olib berishi kerak degani emas. Albatta, bunday ibora odatda yaqin do'stlar orasida aytilishi mumkin bo'lgan iboradir.

Nazorat savollari va topshiriq

- 한턱내 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
- Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

20. 칭찬을 받으면 겸손하게 거절하기

MAQTOV ESHITGANDA KAMTARLIK BILAN RAD ETISH

현우: Nimadir o'xshamayaptimi? Yordam kerakmi?

빅토리아: Ha, faylda qandaydir muamo borga o'xshaydi

현우: Ana endi bo'ldi. Bir qarab ko'ringchi.

빅토리아: Rahmat. Kompyuterni yaxshi tushunar ekansiz. **Daxosiz, daxo!** – 천재

현우:Qo‘ysangizchi... 잘 하기는



Viktoriya kompyuterda ishlayotib muammoga duch keldi. Hisobotini yuborishiga sanoqli daqiqalar qolgandi. Shu vaqtda katta kursda o‘qiydigan Xyonu o‘tib ketayotib o‘zi bilan gaplashayotgan Viktoriyaga ko‘zi tushib, yordamga shaylanadi. Kompyuterni uyoq buyog‘ini ko‘rib, muammoga darrov yechim topdi. O‘tgan safar Vanglinning ham kompyuteridagi muammoni hal qilib bergandi. Xyonu haqiqatda ham kompyuterni juda yaxshi tushunadi. Biroq Viktoriyaning maqtoviga nisbatan Xyonuning javobi bir oz qo‘poldek tuyulmadimikin? Xyonuning xarakteri o‘zi shunday qo‘polmikin?

Qobiliyat haqida maqtov eshitgan koreyslar qanday javob berishadi?

- ❖ 아니에요 – yo‘g‘e, qo‘ysangizchi
- ❖ 잘 하기는요 – uncha yaxshi qilolmadim
- ❖ 전혀 그렇지 않아요 – umuman unday emas
- ❖ 그냥 좀 아는 정도예요 – shunchaki bir ozgina bilaman

Koreyslar maqtov so‘zlarini eshitganida kayfiyati yaxshilanib minnatdor bo‘lishsa-da, yuqorida keltirilgandek 1-4 javoblar kabi iltifotni rad etish yoki uning darajasini bir oz kamaytirgan holda javob berishadi. Agar javoban shunchaki *Rahmat* deb javob qaytarsangiz, siz so‘zlovchining maqtoviga rozi bo‘lganingizni ifodalaydi. Bunday javobdan ehtiyyot bo‘lish lozim, zero bunday javob sizni takabbur inson sifatida namoyon qilishi mumkin. Kamtarlikni muhim deb hisoblovchi osiyoliklarning tafakkur timsoli koreys tilida ham o‘z aksini topgan.



Kamtarlik ifodalarida ham ehtiyyot bo‘lish shart!

Yuqorida 1-4 javoblarda keltirilgandek javob qaytarishda jumlalar so‘ngida ohangni bir oz cho‘zish maqsadga muvofiq. Jumlanı qisqagina tugatish suhabatdoshga nisbatan hurmatsizlik belgisini ifodalashi mumkin. Bunday javoblarda ohang eng muhim ro‘l o‘ynaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar qobiliyat haqida maqtov eshitganlarida qanday javob qaytaradilar?
2. 전혀 그렇지 않아요 ifodalari qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

21. 지나친 자랑은 금물

ORTIQCHA MAQTOV – ZIYON

제임스: Voybo, yangi kiyim sotib oldingmi? Juda chirolyi ekan!

지혜: Shumi? Bu axir eski kiyimku...

제임스: Shundaymi? Qimmat va yaxshi kiyimga o‘xshadi. Yangidek ko‘rindi.

지혜: Ha, yo‘q. Chegirmada juda ham arzonga olgandim.

제임스: Nega bunday javob berdi? Maqtovim yoqmadidi shekilli?



Ishdagiga yo‘lakda Jeyms va Jihe ko‘rishib qolishdi. Jihe kiyigan yangi libosi juda ham chirolyi ko‘rinishda edi. Koreyslar kiyim haqida so‘z ochilganda iltifot so‘zlarini tez-tez foydalanadilar. Kiyim haqida Jeyms ham o‘z mahoratini bir sinab ko‘rmoqchi edi. 새 옷 샀어요? 멋있네요 – “Yangi kiyim oldingizmi? Juda chirolyi”

deb iltifot ko'rsatdi. Biroq, Jihe yangi kiyim sotib olmagan edi. Uning javobidan Jeyms sarosimaga tushib qoldi. Shunda ham qimmat va yaxshi kiyim olinganiga uzoq muddat bo'lgan bo'lsa ham huddi yangi kiyimdek chiroyli ko'rinishini aytdi. Biroq, Jihe bu arzon kiyim deb qo'lini siltab ketdi. Uning bu gapiga ham Jeyms yana bir bor sarosimaga tushdi. Jihe nega bunday javob qaytar ekan? Jaymsning iltifoti Jihega yoqmaganmikin? Nima uchun Jihe yaxshi kiyim emas deb qayta qayta aytganicha yo'lida davom etdi?

*Koreyslar o'zлari ega bo'lib turgan buyumlari haqida boshqalar tomonidan
iltifot so'zlarini eshitganda ular qanday javob qaytaradilar?*

- ❖ 고마워요 – Rahmat
- ❖ 별로 좋은 것도 아닌데요 – Unchalik ham yaxshi narsa emas
- ❖ 진짜 짠 거예요 – Juda ham arzon narsa bu
- ❖ 오래된 건 데요, 뭐 – Bu eski kiyimim

Koreyslar biror-bir buyum, kiyim haqida iltifot, maqtov so'zlarini eshitishganida suxbatdoshiga minnatdorlik bildirish holatlari mavjud bo'lsada, odatda 2-4 raqamlaridagi javoblar kabi narsa-buyumlarning qadrini biroz tushirgan holda javob qaytarish holalari ham uchrab turadi. Ayniqsa suhbatdosh bilan juda yaqin munosabatlarda bo'lmanan holda yoki yoshi katta insonlarga nisbatan aynan shunday javoblar ma'qul keladi. Bunday javoblar bilan suhbatdoshga nisbatan rad javobini berish emas, balki maqtovga bo'lgan kamtarona javob sifatida qabul qilish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreyslar qobiliyat haqida maqtov eshitganlarida qanday javob qaytaradilar?
2. 전혀 그렇지 않아요 ifodalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

22. 칭찬인 듯 칭찬이 아닌 듯?

ILTIFOT MA'NOSIDAGI ILTIFOT BO'L MAGAN SO'ZLAR

현우: Bolalar, barcha uy vazifani bajardimi?

민아: Voy, men faqat yarmini tugatdim...

왕린: Qanday qilib? Men hammasini qildim, lekin to‘g‘ri qildimmi bilmayman.

현우: Qani bir ko‘raylikchi. Uh, yaxshi bajaribsan, yaxshi qilbsan.

왕린: Rostdanmi? Qo‘ldan kelgancha harakat qildim.



Uyga vazifa chindan ham qiyin edi. Vaqt ham juda kam edi. Yuqori kursdag'i Hyonuning uy vazifani hammasini bajardingizmi degan gapidan Mina va Vanglin tushkunlikka tushishdi. Hyonu mehribonlik bilan Vang Lining uy vazifasini ko'rsatishini aytdi. Vang Lining uy vazifasini o'qiyotgan Xyonu: "Yaxshi bajaribsan. Yaxshi", — dedi. Bu so'zlarni eshitgach, Vang Lining xavotirlari yo'qoldi. Koreys millatiga mansub Hyonuning 잘 했다 - "Yaxshi bajarding" degan so'zida xatolik yo'qmikin? Xyonuning so'zlaridan o'zini xotirjam his qilgan Vang Lining so'zları: 정말요? - *Rostdanmi?* 다행이다 - *Qo'ldan kelgancha harakat qildim/ hayriyat.* Lekin nega Xyonu va Mina Vang Linnig 잘 했다길래 다행이다 - "Yaxshi ish qilganimdan xursandman/ hayriyat hammasi yaxshi" degan so'zlaridan biroz hayron qolishdi?



잘 했다 - *Yaxshi bajaribsan.* 잘 났다 – *Barakalla / Uddalading*

Bu maqtov ifodasi emasmi?

• •

Koreys tilida iltifotga o'xshash so'zlar bor, biroq aslida iltifotni anglatmaydi. "너 잘났다- *Barakalla/ sen uddalading*, 잘 했다/잘 했어 - *Yaxshi bajarding*" kabi ifodalar ba'zi holatlarda iltifotni anglatmaydi. Aksincha, suhbatdoshning so'zlarini yoki xatti-harakatlari ma'qullamaganda istehzoli ifoda hisoblanadi. Albatta, bu holatda ohang o'zgarishiga ahamiyat berish muhimdir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 잘 했다 va 잘 났다 ifodalarini qo'llashda qanday farq mavjud?
2. 다행이다 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

23. 잘한다? 잘~한다? 비슷하지만 다른 표현 1

YAXSHI QILMOQ (잘한다)? 잘~한다 (JUDA YAXSHI)?

O‘XSHASH, AMMO FARQLI IFODALAR I.

민아: Vanglin, ovqatni juda yaxshi pishirasan! – 잘 한다 – **yaxshi qilmoq**.

Men idishlarni yuvaman.

왕린: Hamma idishlarni birdaniga ko‘tarma, bu xavfli.

Bir ozdan so ‘ng ...

왕린: Yaxshi qilding!/ Boplading. – 잘~한다. **Juda yaxshi!** – 잘 해! Men nima degandim?



Iltifotda keladigan 잘한다! – *yaxshi bajarding!* ifodasida hech qanday ohangsiz, qisqacha aytish mumkin, ammo istehzoli ibora bo‘lgan 잘~한다 ifodasida oldingi 잘 - *yaxshi so‘zi uzunroq talaffuz qilib*, 자알 ko‘rinishida ifodalash kerak.

Ohangga qarab, u qarama-qarshi ma'noga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun ohangga ehtiyot bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 잘한다? va 잘~한다? ifodalarini qo'llashda qanday farq mavjud?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

24. 잘했다? 잘 됐다? 비슷하지만 다른 표현 2

잘했다? – QOYIL? 잘됐다? – JUDA YAXSHI BO'LIBDI?

O'XSHASH, AMMO FARQLI IFODALAR 2

1. Qoyil! 정말 잘 했어!
2. Nihoyat ota-onam turmush qurishimizga ruxsat berishdi, shuning uchun men bu yil turmushga chiqaman.

Juda yaxshi bo'libdi/ ajoyib! 정말 잘 됐다 . Tabriklaymiz!



잘했다 – bu suhbatdoshning harakat orqali yaxshi natijalarga erishganida uni maqtash uchun ishlatiladigan iboradir. 잘됐다 – biror bir vaziyat yaxshi tarafga o‘zgarganda va bu suxbatdoshga ijobiy ta’sir qilganda, ya’ni yaxshi bir voqeа sodir bo’lganda qo’llanuvchi ifodadir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 잘 했다 va 잘됐다 ifodalarini qo’llashda qanday farq mavjud?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

25. 칭찬에 농담으로 대답하기

MAQTOVGA HAZIL BILAN JAVOB BERISH

민아: Kecha ko‘chibsan, yaxshi ko‘chib oldingmi?

빅토리아: Ha. Men o‘ylagandan ko‘ra ko‘proq yukim bor ekan, lekin hammasi yaxshi.

민아: Unday bo‘lsa juda yaxshi. Bu ko‘chganing uchun senga sovg‘a.

빅토리아 : Bular nima bo‘ldi? Mina, sen Koreyada men uchratgan eng g‘amxo‘r insonsan!

민아: Nima? **Buni endi bildingmi?** - 그걸 이제 알았어?

빅토리아: Nima?! Koreyslar maqtov eshitganda odatda 아니에요 - *Yo ‘q, unday emas/ qo ‘ysangizchi* deyishardi.



Viktoriya kecha yangi uyga ko‘chib o’tdi va mактабда дугонаси Mina bilan uchrashib qoldi. Mina yangi uyga ko‘chib o’tgan Viktoriyaga sovg‘a berdi. Viktoriyaning 고마워! 넌 내 한국 친구중 최고로 자상해! “Rahmat! Koreyalik do ‘stlarim ichida sen eng g‘amxo ‘r insonsan!” degan iltifotiga javoban Mina 그걸 이제 알았어? Buni endi bildingmi? deb javob qaytardi. Koreyslar odatda iltifotga javoban juda kamtarona iboralarni qo‘llashadi. Lekin nima uchun Mina koreylsarga xos bo‘lgan 아니에요 – Yo ‘q, unday emas / qo ‘ysangizchi, 별 말씀을요 – Arzimaydi kabi ifodalardan foydalanmadidi? Koreyslar odatda iltifot so‘zlarini eshitganlarida suhabatdoshga qaraganda o‘zlarini bir pog‘ona past tutib javob bermaydilarimi?

Koreyslar yaqin insonlaridan maqtov, iltifot so‘zlarini eshitganida bunga javoban qanday ifodalardan foydalanishadi?

- ❖ 아니야 – Yo‘q.
- ❖ 나도 알아 – Men ham bilaman.
- ❖ 그걸 이제 알았어? – Buni endi bildingmi?

Koreyslar iltifot, maqtov kabi so‘zlarni yaqin insonlaridan eshitsa, yuqorida keltirilgan uchchala bandni hammasidan foydalanish mumkin. Koreyslar odatda birinchi bandda keltirilgan ifodadan foydalanishadi. Ikkinci va uchinchi bandda keltirilgan ifodalardan esa hazil sifatida foydalaniladi. Iltifotga javoban juda ham kamtarlik va rad javobini berish suhbатdoshni noqulay vaziyatga solishi mumkin. Shuning uchun yuqorida keltirilgan hazilomuz javoblardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Albatta bunday hazillardan faqatgina o‘zaro yaqin insonlar foydalanishlari mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida iltifot so‘zlariga javoban qanday ifodalar qo‘llaniladi?
2. 별 말씀을요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

3

ILTIMOS VA TALAB

26. 상황을 설명하면서 부탁하기

VAZIYATNI TUSHUNTIRAYOTIB ILTIMOS QILISH

부장님: Jeyms, biroz sovuq emasmi?

제임스: Ha, biroz sovuq. Kuz kelganga o‘xshaydi.

부장님: Ha, shundaymi? Hmm.

제임스: Nega jahli chiqdi ekan? Men nimani noto‘g‘ri qildim?



Ofis oynasi ochiq bo‘lgani uchun menejer biroz sovuq qotdi. Menejer deraza yonida o‘tirgan Jeymsdan havo biroz sovuqmi, deb so‘radi. Kuz kelyaptimi? Bugun havo ancha salqinlashdi. Jeyms ham menejerning aytganlariga qo‘sildi. Jeyms menejerga 네, 좀 춥네요 – “*Ha, biroz sovuq!*” deb javob berdi. Ammo menejerning bu javobdan yuz ifodasi bir oz o‘zgardi. Nega? Jeyms qayerda xato qildi va nimaga e’tibor bermadi?



춥지 않아? - Sovuq emasmi deb so‘rash nimani anglatadi?

.....

Odatda biror bir ishni iltimos qilganimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘ralmaydigan holatlar bor. Sizning o‘sha vaziyatdagi ahvolingiz haqida suhbatdoshga bir oz so‘zlashning o‘zi kifoya. Yuqoridagi suhbatda menejer ham Jeymsga o‘zinig ahvoli, ya’ni, xona sovuq ekanligi va derazani yopish kerakligiga shama qildi. Koreyslarda hatto qalam yoki o‘chirg‘ich so‘rash kabi oddiy iltimoslarda ham, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘ralmaydi. 펜이 안 나오네 – “*Qalamim yo‘q shekilli*” yoki 지우개가 없어졌네 – “*O‘chirg‘ichim yo‘q ekan*” deb so‘zlash sizni ushbu narslarni so‘rash haqidagi iltimosingizni anglatadi.



Yumshoq ifodalar orqali o‘z xohish-istagingizni suhbatdoshga yetkazish

빠지는 사람이 없었으면 좋겠어 - “*Hech kim chetda qolmasin degan umiddaman*” yoki 좀 더 빨리 시작했으면 좋겠어요 – “*Tezroq boshlasak yaxshi bo‘lardi*” kabi ifodalardan foydalanish so‘zlovchini suhbatdoshiga yetkazishi mumkin bo‘lgan istagining yumshoq ifodasidir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida iltimos qilishning qanday usullarini bilasiz?
2. 좀 더 빨리 시작했으면 좋겠어요 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

27. 비켜 달라고 말하면 이상해?

CHETGA O'TIB TURASIZMI / YO'LNI BO'SHATASIZMI DEYISH G'ALATIMI?

빅토리아: Bu mening joyim. **Iltimos, bo'shatib qo'ying.** – 비켜 주세요.

관람객: Ha, shundayimi?

빅토리아: Men qayerdadir xato qildimmi? Hozirgi kishining yuz ifodasi nega ajablanarli edi?

왕린: Bilmasam. Men ham tushunmadim.



Viktoriya va Van Lin bir muncha vaqt ichida birinchi marta kino ko‘rishga borishdi. Vaziyat qanday tus oldi? Viktoriya chipta sotib olib, o‘z joyini topish uchun borgandi, lekin u yerda boshqalar o‘tirgan ekan. Viktoriya ularga chiptasini ko‘rsatdi va ularga joyni bo‘shatib qo‘yishni aytdi. Lekin u yerda o‘tirgan koreys kishi nega ajablandi? Sarosimaga tushdimikin? Ko‘rinishi yaxshi emasdi. Nimada va qaterda xato qilgani sababini Viktoriya tushunmay qoldi. Viktoriya Vang Lindan

qanday xato qilganini so‘radi, lekin Vang Lin ham buni bilmasdi. Nima sababdan bunday holat yuz berdi?

Qanday qilib o‘z huquqlaringizni xushmuomalalik bilan himoya qilishingiz mumkin?

- ❖ 제 자리니까 비켜 주세요 – Iltimos, mening joyim bo‘lganligi uchun uni bo‘shatsangiz.
- ❖ 자리 좀 비켜 주실래요? – Iltimos, joyni bo‘shata olasizmi?
- ❖ 저기, 여기 제 자리인데요. – Bu mening joyim edi.
- ❖ 여기 제 자리인 것 같은데요. – Bu mening joyim shekilli.

Bunday vaziyatlarda suhbatdoshdan darhol talab qilish ifodalaridan ko‘ra yuqorida keltirilgan javob ko‘rinishlaridan foydalangan ma’qul. Birinchi bandda keltirilgan ifoda suhbatdoshga nisbatan tanbeh berish kabi ta’sir qilib, uni noqulay vaziyatga solish mumkin. Shuning uchun bunday holatlarda uchunchi banddag'i ifodadan foydalangan ma’qul.

To‘rtinchi banddag'i ifodadan esa siz o‘zingizni pozitsiyangiz aniq bo‘lganda yumshoq talab qilishda foydalanishingiz mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 제 자리니까 비켜 주세요 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Siz o‘z huquqingizni himoya qilishda qanday ifodalardan foydalanasiz?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

28. 내가 언제 안 간다고 했지?

MEN QACHON BORMAYMAN DEDIM?

민아: Chang‘i uchish maydoniga boramizmi?

까녹꾼: Bilmasam...

민아: Chang‘i uchish maydoniga bormaysanmi?

은희: Nima? Men bormayman demadim shekilli?

민아: Yo‘q, yo‘q. Vaqting bo‘lganda birga chang‘i uchishni xohlagandim.

민아: Mmm? Unda nima uchun bormaysanmi dedi?



Mina qishki ta'tilda do'stlari bilan chang'i uchish maydoniga borishni xohladi. Tog'-chang'i kurortida gupillab yog'ayotgan qor haqida o'ylashni o'zi hayajonga soldi! Mina Eun Hee va Kanokkonga chang'i uchish maydoniga birga borishni taklif qildi. Lekin Kanokkon Minaning so'zlariga biroz tushunmagandek edi. Buning sababi, u Eun Heedan **갈래?** - *Borasanmi?* deb so'radi va uning 글쎄 – *Bilmasam* degan javobiga nisbatan **안 갈래?** - *Bormaysanmi?* – deb so'ragan savoli sabab bo'ldi. Kanokkon tushunmaganinig sababi Mina borishni taklif qilib, so'ng bormaysanmi degani edi.



안 갈래? - Bormaysanmi? degan ifoda birgalikda borish deganimi?

Biror insonga nimadir taklif qilishda undan birgalikda shu ishni bajarishni yoki biror narsani qilib ko'rishni so'rash suhbatdoshda noqulaylik hissini uyg'otishi mumkin. Shuning uchun koreyslar ba'zan suhbatdoshning xohish-irodasi haqida “**안**” inkor qo'shimchasini qo'llash orqali savolga tutadi. Masalan, “**안 갈래?** – *Bormaysanmi?*”, **안 먹을래?** – *Yemaysanmi?* / *Oqvatlanmaysanmi?* **안 볼래?** – *Ko'rmaysanmi?* / *Tamosha qilmaysanmi?* kabi savollar shular jumlasidandir. Bu esa o'z navbatida sizni suhbatdoshga bosim o'tkazmasdan ehtiyojkorlik bilan iltimos qilishingizni va shu bilan birgalikda odob qoidalariga amal qilishingizni ko'rsatadi.



Iltimos yoki talabga nisbatan javobingiz...

Sizdan biror bir narsani iltimos yoki talab qilishganida bunga nisbatan qanday javob berish kerak? Odatda kattalarning iltimosiga nisbatan 네, 알겠습니다 – *Ha, tushundim*, 네, 팬찮습니다 – *Hech qisi yo 'q / Hammasi joyida* kabi javob berish ma'qul hisoblansa, do'stlar orasida esa 응 – *Hmmm*, 알았어 – *Tushundim*, 좋지 – *Yaxshi*, – *Hop* kabi javob berish mumkin. Bundan tashqari esa 물론이지 – *Albatta*, 당연하지 – *Odatiy ish / albatta* kabi ifodalar bilan ham javob berish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. “안” inkor qo‘shimchasini qo‘llash orqali berilgan savol qanday ma’noni anglatadi?
2. Iltimos yoki talabga nisbatan qanday javob berasiz?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

29. 부담스러운 요청, 가능성 묻기로!

NOQULAY TALABNI IMKON DARAJASIDA SO‘RASH

왕린: Endi nima qilaman? Men uyali telefonimni unutib qoldiribman.

민아: Voy, qanaqasiga?

왕린: Men juda shoshganimga shunday bo‘ldi, iltimos, menga uyali telefoningni berib tur, uzr.

민아: Nima? Sen shunchalik ishonchlimisan, Vanglin? Chindan ham unutib qoldirgan narsangni qidiryapsanmi? Bunday paytlarda berib tura olasizmi deb so‘raladi, Vanglin.

왕린: Ha to‘g‘ri. Men shoshib qolganim uchun shunday debman.



Vang Lin yana shifokor qabuliga yozilish vaqtini o'zgartirishni unutgandi. Shifokorga qo'ng'iroq qilishi kerakligi yodiga tushganida uyali telefoni yonida yo'q ekanligini payqadi. Uyali telefonini uyda qoldirganini tushundi. Shu vaqt yo'lida Vang Lin Minani uchratib qoldi. Vang Lin Minaga qarab: 핸드폰 좀 빌려 줘 – “*Iltimos, menga uyali telefoningni ber*” degandi, lekin, Mina buni eshitib, javoban kulib qo'ydi. Bunday vaziyatda Vang Lin 빌려 줄 수 있나? – *Berib tura olasanmi? / Berib tura olasizmi?* deb so'rashi kerak edi. Vang Lin shoshib qolganidan o'ylamay gapirib yuborganini tushundi.

Biror narsani so‘rashga hijolat bo‘lganda qanday yo‘l tutgan ma’qul?

- ❖ 핸드폰 좀 빌려줘 – *Iltimos, menga mobil telefoningni ber.*
 - ❖ 핸드폰 좀 빌릴게 – *Mobil telephoningdan foydalanishga berib tur.*
 - ❖ 핸드폰 좀 빌려줄 수 있어? – *Mobil telefoningizni qarzga bera olasizmi?*
 - ❖ 저, 핸드폰 좀 빌려줄 수 있을까요? – *Mobil telefoningni berib tura olasanmi?*
-

Koreyslarda hatto do‘sstlar orasida ham shaxsiy buyumlarni so‘rab turishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalardan qochish maqsadga muvofiqdir. 3 - va 4 - bandlarda keltirilganidek – (으)ㄹ 수 있어? – (으)ㄹ 수 있을까요? qo‘s Shimchalaridan foydalanib biror bir narsani yoki buyumni so‘rash afzal. Biror kishidan biror narsa so‘ralganda, odatda undan buni ishni qila oladimi yoki yo‘qligini ham so‘rash kerak. Bunda siz suhbatdoshga hurmat yuzasidan munosabatingizni bildirgan bo‘lasiz.

Yaqin insonidan to‘ridan-to‘ri so‘rash

Agar siz yaqin do‘sstingizdan mas’uliyati nisbatan kamroq bo‘lgan biron ish haqida iltimos qilmoqchi bo‘lsangiz, u holda 좀 빌려 줘/ 좀 빌려 줘라 *Iltimos, berib tur* kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalar bilan so‘rashingiz mumkin. Bu do‘sstingizga noqulaylik tug‘dirmaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Iltimos qilishda qanday usullardan fodolangan ma’qul?
2. U yoki bu narsani iltimos qilishda qanday grammatikadan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

31. 안 가지고 왔는데 어떻게 말하지?

MEN OLIB KELMAGANIMNI QANDAY AYTAMAN?

빅토리아: Voy, nima qilaman? Menhisobotni unutibman va olib kelmabman.

민아: Ana, professor kirib keldilar. Borib yaxshilab tushuntirib ko'r.

빅토리아: Ha, men unga tushuntirib ko'raman...

... Haligi, professor, men hisobotni olib kelmabman uni keyingi safar topshira olaman.

Professor biroz o'ylanib qoldi.



Dars vaqtি. Afsuski, Viktoriya uy vazifasini uyda unurib qoldirdi. Odatda Viktoriya buday xatoga yo'l qo'ymas edi. Mina Viktoriyaga qarab professorga hisobotini uyda qoldirganini aytishini va keyingi darsga olib kelishi mumkinmi deb so'rashini aytди. Viktoriya jasorat qilib professorga hisoboti qolib ketganligini va keyingi darsga olib kelishi haqida aytishi bilanoq professor va Mina bir oz sarosimaga tushib qolishdi. Rostini aytib vaziyatini tushuntirgan zahoti nega bunday tushunarsiz holat yuzaga kelganiga Viktoriya ham tushunmay qoldi.

*Uchrashuv belgilangan sana yoki vaqtni o'zgartirishni so'ramoqchi
bo'lganda qanday ifodalardan foydalangan ma'qul?*

- ❖ 제가 보고서를 안 가지고 왔는데 다음 시간에 낼게요. – *Men hisobotni olib kelmagandim, keyingi dars topshiraman.*
- ❖ 제가 보고서를 안 가지고 와서 다음 시간에 낼 수 있어요? – *Men hisobotni olib kelmaganim uchun uni keyingi dars topshirishim mumkinmi?*
- ❖ 제가 보고서를 깜빡했는데 다음 시간에 내도 괜찮을까요? – *Hisobotni unutibman, keyingi darsda topshirsam maylimi?*
- ❖ 제가 보고서를 못 가지고 왔는데 다음 시간에 내도 될까요? – *Hisobotni olib kela olmadim. Keyingi dars topshirsam ham bo'ladimi?*

Ba'zida va'dani bajara olmaydigan vaziyatlar ham yuzaaga keladi. Bunday holatlarda va'dalashilgan vaqtni uzaytirishga ruxsat so'rashda 3- va 4- bandda berilgan ifodalar singari suhbatdoshga murojaat qilish ma'quldir. Bunday ruxsat so'rash ifodalaridan foydalanish sizni suhbatdoshga nisbatan hurmatingizni ifodalaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Uchrashuv vaqtini o'zgartirmoqchi bo'lganingizda qanday ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq?
2. Yuqoridagi kabi vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardigiz?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

32. 안 되어 있어서? 안 해서?

O'XSHAMADIMI? QILMADINGIZMI?

- Janob kotib, menejer bu hisobotni hali tasdiqlamadilarmi?
- Ha-yaa, bo‘lim boshlig‘i hali hisobotni tasdiqlamadilar. Yuring, tasdiqlatishga birgalikda boramiz...
- Janob bo‘lim boshlig‘i, hisobotni hali tasdiqlamagan ekansiz ...
- Shundaymi? Qani ko‘raylikchi.
- *Tasdiqlanmagan? Bo‘lim boshlig‘i tasdiqlamaganlar? Jeyms biroz o‘ylanib qoldi.*



Oyning oxiri! Tugatish kerak bo‘lgan bir dunyo hisobotlar... Jeyms hujjatlarni ko‘zdan kechirar ekan, bo‘lim boshlig‘i hanuz hisobotni tasdiqlamaganini aniqladi va bu haqda o‘z rahbari, bo‘lim boshlig‘i yordamchisi janob Liga xabar berdi. Jeymsdan hujjatlarni olgan janob Li bo‘lim boshlig‘i oldiga hisobotni tasdiqlatish uchun ketdi. Ammo menejer yordamchisi janob Li menejerdan hisobot tasdig‘ini so‘ragandagi 결재가 안 되어 있어서요 – *Tasdiqlanmagan ekan* ifodasi nimani anglatar ekan? 부장님, 결재를 안 하셨어. 결재해 주세요. – *Janob, siz hisobotni tasdiqlamagan ekansiz. Tasdiqlab bersangiz* ifodasi yaxshiroq emasmi?

Rahbar xodim bajarishi kerak bo‘lgan ishni unutganda qanday ko‘rinishda shu ishni bajarishini so‘ragan ma’qul?

- ❖ 부장님, 아직 결재를 안 하셨어요. 해 주세요. – *Janob menejer, siz hali hisobotni tasdiqlamagan ekansiz, iltimos tasdiqlab bersangiz.*
 - ❖ 부장님, 아직 결재가 안 되어 있는 것 같은데요. – *Janob menejer, menimcha, hali hisobotni tasdiqlamagansiz.*
 - ❖ 부장님, 아직 결재가 안 되어서요. – *Janob menejer, hisobot hali tasdiqlanmagan bo‘lganligi uchun ...*
-

Lavozimi quyi bo‘lgan xodim lavozimi yuqori bo‘lgan shaxsga nisbatan nazardan chetda qolgan hujjatni tasdiqlashni o‘tkazib yuborgani haqida eslatmoqchi bo‘lsa 1-bandda keltirilgandek to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z fikrini bayon qilishi vaziyatni biroz keskinlashtirishi mumkin. Uning o‘rniga 2-va 3-bandlarda keltirilgan ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, jumla -(으)ㄴ 데요 yoki – (으)/ 어/여)서요 kabi yakunlovchi qo‘srimchalar bilan tugatilsa suhbatdoshga bo‘lgan hurmatni ifodalaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Suhbatdoshingiz biron ishni bajarishini unutganida qanday ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq?
2. Yuqoridagi kabi vaziyatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardigiz?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

33. 식당 종업원에게 직접적으로?

RESTORAN ISHCHILARIGA QANDAY MUROJAAT QILINADI?

민아: Nima yeishni hohlaysan?

왕린: Men kecha yegan ovqatimizdan yemoqchiman.

빅토리아: Ha, men ham.

민아: Iltimos, bizga bitta 불고기 va ikkita 된장찌개 bering.

종업원: Tushunarli.

빅토리아: **Hoy, qarab yuboring. Menga suv bera olasizmi?** - 저, 여기요, 물 좀 주시면 안 될까요?

민아: Bunchalik ko‘p gapirish shart emasdi...



Bir topshiriq ustida ishlayotib, qorni ochgan Mina, Vang Lin va Viktoriya kecha borgan restoraniga borishdi. Restoran odamlar bilan gavjum, ofitsiantlar esa juda band edi. Balki shuning uchun ham buyurtma berilganda ofitsiant suv ham olib kelishga ulgurmadi. Viktoriya chanqagani sababli avval suv so‘radi. Koreyada odob nuqtai nazaridan o‘ta muloyim tarzda murojaat qilish kerak! 저, 여기요, 물 좀 주시면 안 될까요? – *Hoy, qarab yuboring. Menga suv bera olasizmi?* Viktoriyaning ehtiyyotkorlik bilan so‘zlaganini eshitgan Minaning yuziga tabassum yugurdi.

Restoran ishchisiga qanday murojaat qilish kerak?

- ❖ 비빔밥 좀 주실 수 있으세요? – *Iltimos, menga bibimbap bera olasizmi?*
- ❖ 저, 여기 비빔밥 좀 주셨으면 하는데요 – *Menga 비빔밥 berasizmi?*

❖ 여기, 비빔밥 2 인분 주세요. – *Iltimos, ikki kishilik ㅂ/ㅂ/ㅂ bering.*

.....

Restoran yoki do'konda biror narsa so'raganiningizda, siz yuqorida 3-bandda keltirilgan usuldan foydalanishingiz mumkin. Sababi, mijozning restoranda buyurtma berishi, do'konda suv, ho'l sochiq, qoshiq va hokazolarni so'rashi tabiiy holdir. Agar 1- va 2-bandda berilgan ifodalardan foydalansangiz, u holda biror narsani iltimos qilayotganingizni anglatadi. Biroq, 2-banddagi ifodadan foydalansangiz, u holda ofitsiant buni noto'g'ri tushunib, siz tekinga 비빔밥 so'rayapsiz deb o'ylashi mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida xizmat ko'rsatish soxasi xodimlariga qanday murojaatlardan foydalilanildi?
2. 여기요/ 저기요 ifodalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

34. 그냥 하는 말이 아니라 부탁이었어

SHUNCHAKI GAP EMAS ILTIMOS EDI

왕린: Bugun hammasini tugata olasanmi ?

빅토리아: Ha, tugatishim kerak.

민아: **Kun ham qorong'ulashibdimi** – 어둡네.

왕린: Balki chiroqni yoqarmiz?

빅토리아: Vang Lin e'tiborlisanda.

왕린: Yaxshi qildim-mi?



Vangrin, Viktoriya, Mina vaqt allamahal bo‘lganini bilmay topshiriqni bajarishayotgan edi. Atrof qorong‘ulashib chiroqni yoqmoqchi bo‘lgan Mina 어둡네 - *qorong‘ulashibdimi* deb do‘sraliga aytdi. Shu payt Minaning gapini e’tibor bilan tinglagan Vang Lin chiroqni yoqdi. Demak, koreyslar shunday so‘zlar bilan ham iltimos qilishlari mumkin. Viktoriya bugun yana bir yangi bilimga ega bo‘ldi.



어둡네 - *qorong‘ulashibdimi* ifodasi orqali iltimos qilish mumkinmi ?

.....

Koreys jamiyatida 어둡네 - *qorong‘ulashibdi*, 춥다/덥다 - *sovuuq/issiq* kabi so‘zlar orqali ham iltimos qilish mumkin. Bu kabi ifodadan foydalanish suhbatdoshga buyruq mas’uliyatini yuklashdan ko‘ra iltimos ma’nosida anglashiladi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri iltimos qilish o‘rniga qanday murojaatlardan foydalilanidi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

35. 질문에 다시 질문을?

SAVOLGA SAVOL BILAN MUROJAAT

왕린: Buni qora rangdagisi ham bormi?

점원: Qora rangimi? – 이거 까만색도 있지요?

Kiyib ko‘rasizmi? – 손님이 신을 거예요?

O‘lchamingiz... ? – 사이즈가?

왕린: Bor dedimi? Yo‘q dedimi? Javob bermay faqat savol berdi...



Vang Lin uyg'a qaytayotganida poyabzal do'koniga kirdi. Ko'ngliga yoqgan dizayndagi poyabzalni topdi. Biroq oyoq kiyim qizil rangda edi. Qizil rang hozirda mashhur bo'lsa-da, Vang Lin qora rangdagi poyabzalni sotib olishni xohladi. Biroq, sotuvchi Vang Lining 이거 까만색도 있지요? – “Buni qora rangdagisi ham bormi ?” degan savoliga javob bermay 까만색요? – “Qora rangimi?”, 손님이 신을 거예요? – “Kiyib ko 'rasizmi ?”, 사이즈가? – “O'lchamingiz... ?” kabi savollar bilan murojaat qildi. Vang Lining kayfiyati bir oz tushdi va o'zicha o'yladi 있다는 거야? 없다는 거야? – “Bor dedimi? , Yo'q dedimi?” Mijozlarga bunday munosabatda bo'lish mumkinmi ?



Sotuvchi nega javob o'rniga ketma-ket savollar berdi?

Koreyslar suhbat jarayonida odatda barchaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni tushirib qoldirish holatlari uchrab turadi. Oyoq kiyim do'koni sotuvchisi ham qora rangdagi oyoq kiyim do'konda bor bo'lgani sababli mijozga mos o'lchamdagisini taklif qilish uchun uning o'lchamini so'ragan edi. Koreys jamiyatida bu kabi qisqa gaplar bilan muloqot qilsangiz tabiiy suhbat qura olishingiz mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida nima sababdan javob o'rniga ketma-ket savol berish holatlari kuzatiladi?
2. 손님이 신을 거에요 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

36. 어려운 부탁, 어떻게 시작하지?

BIR OZ MUSHKUL ILTIMOS HAQIDA QANDAY USULDA SO'Z BOSHLASH MUMKIN?

민아: Bu safargi topshiriq biroz qiyin emasmi ?

빅토리아: Bir oz qiyin, bajaradigan ishlar ham ko'p...

민아: Lekin sizlar tadqiqot bo'yicha ma'lumotlarni barchasini bajardingiz, to'g'rimi ?

빅도리아: Ha, albatta. Hammasi mana bu yerda.

은희: Vooooy, ma'lumotlarim.... Nima qilsam ekan ? Qoldirib ketgan ko'rinishman.

빅도리아: Bu safar ham qoldirdingmi ? Bu holat bir yoki ikki marta takrorlanmayapti, juda ko'p sodir bo'ldi. (*Hayolan*)

민아: Kechirasiz, **haligi, borku ... – 저기 있잖아.**

빅도리아: Nima? Nima bor deyapti? Nega gapini davom ettirmayapti ?



Sinfxonada Mina, Inhe hamda Viktoriya guruh topshiriqlari haqida suhbatlashishayotgan edi. Ushbu topshiriq odatdagidan ko‘ra bir oz murakkab topshiriq bo‘lgani uchun hamma xavotirda edi. Inhe bu safar ham tayyorlanib kelmadimi? Ayni o‘sha damda Inhening bunday qiliqlariga chidab kelgan Mina noroziligini bildirdi. Shu vaqtda Minaning nimadir bor degan gapi Viktoriyaga g‘alati tuyuldi. Haqiqatdan Mina nimadir bor deb aytishni xohlagan edimi ? Yoki biron mushkul iltimosli gap aytmoqchi edimi?



Bir oz mushkul iltimos haqida qanday gap boshlagan ma’qul?

Qiyin bo‘lgan, noqulay vaziyatlarda iltimos qilishda 있잖아요 – *Haligi, borku, jer – men.... 근데요 – lekin*” kabi so‘zlardan boshlang. Bu so‘zlarni eshitgan suhbatdosh, biron jiddiy va mushkul iltimos bor deb taxmin qilishi mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida bir oz mushkul iltimos haqida qanday ifodalardan foydalanib gapirgan ma'qul?
2. 있잖아요 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

37. 사회자 말은 너무 격식적이야

BOSHLOVCHINING JUDA RASMIY ESHITILGAN GAPI

빅토리아: Vanihoyat Hiong xonimningning to‘yi bo‘lyapti.

왕린: Ha. Hiong xonim juda chiroyli.

민아: Ha, juda o‘zgarib, boshqa odamga o‘xshab qolibdi.

사회자: **Tez orada marosim boshlanadi, hurmatli mehmonlar o‘z joyingizni egallashingizni so‘raymiz.** – 곧 식이 시작되어니 하객 여러분께서는 참석해 주시기 바랍니다.

민아: Marosim boshlanyapti, joyingni egalla.

왕린: Ho‘p, Viktoriya sen ham o‘tir.

빅토리아: Nega boshlovchi bunday jiddiylik bilan so‘zлади?



Nihoyat, Hiong xonim turmushga chiqyapti. Vang Lin Hiongning to‘yiga Viktoriya va Mina bilan tashrif buyurdi. Hiong kelinlik libosida juda ham chiroyli edi. Vang Lin, Viktoriya va Mina uchovlon hayajonda suhbat qurishmoqda edi. Shu dam o‘rta oboruvchining to‘y boshlanayotganini mikrofon orqali e’lon qilishi baland va juda jiddiy eshitildi. 곧 식이 시작되어니 하객 여러분께서는 착석해 주시기 바랍니다 – *Tez orada marosim boshlanadi, hurmatli mehmonlar o‘z joyingizni egallashingizni so‘raymiz.* Boshlovchi juda ham jiddiy gapirmayaptimi? Boshlovchining ohangi Viktoriyani biroz noqulay holga tushishiga sabab bo‘ldi. Boshlovchi nega bunday gapirdi?



Boshlovchining gaplari nega jiddiy eshitildi ekan ?

.....

To‘y, munozara, tadbir va h.k. yig‘ilishlarda boshlovchilar rasmiy uslubda so‘zlashi kerak. Shuning uchun ham bunday jumlalar jiddiy ohangda eshitilishi mumkin. Boshlovchilar tomonidan odatda ishtirokchilarga joylar egallanishini yoki tinchlik saqlanishini so‘raganda rasmiy ohangda murojaat qilingani uchun biroz jiddiy tuyulishi mumkin. Biroq, bu faqat rasmiy vaziyat uslubi bo‘lib, boshlovchining shaxsiyati bilan bog‘liq emasligini unutmaslik lozim.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Rasmiy doiralarda iltimos qilishda qanday usullardan foydalaniladi. ?
2. 곧 식이 시작되어니 하객 여러분께서는 참석해 주시기 바랍니다 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

38. 잠깐이 아닐 것 같은데요

TEZ BITADIGAN ISHGA O‘XSHAMAYAPTI

동료: Jeyms hozir nima qilyapsiz ?

제임스: Hisobotni ko‘rib chiqyapman.

동료: Ha, shundaymi ? Tarjimada yordamingiz kerak edi-da, **bir soniyaga yordam bera olasizmi?** – 잠깐만 도와줄래요 ?

제임스: Bu hisobotni tez tugatishim kerak edi-da. Bundan tashqari tarjima ko‘p vaqt olasa...

동료: Tez bitadi. 잠깐이면 돼요. 제임스: Rostdan tez bitadi dedimi? Undayga o‘xshamaydi-ku.



Ofisda barcha o‘z ishi bilan band. Jeyms muddati yaqinlashib qolgan hisobotni yozish bilan band edi. Shu vaqt koreys hamkasbi undan tarjimada yordam berishini so‘radi. Jeymsni ikkilanayotganini ko‘rgan hamkasbi tarjima tez bitishini, soniya vaqt ketishini aytdi. 잠깐만이라고? – *Bir soniya dedimi ?* Bu tarjima kamida 30 daqiqadan ko‘proq vaqt oladi, u esa bir daqiqa dedi. Koreyslarda 30 daqiqa bir soniyami ? Nima uchun bir soniya dedi ?



Nima uchun 잠깐만 - *Bir soniya / Bir oz deb* aytiladi ?

Koreyslar biron ishni iltimos qilganda hijolatni ifodalash uchun заман / заман – *bir soniya* / *bir lahza* kabi iboradan foydalanadilar. Bu ifoda iltimos qilinayotgan ish bir ozgina vaqtni olishini mumkin degan ma’noda qo’llanilib, suhbatdoshga mazkur ishni amalga oshirishda mas’uliyat kam ekanligini anglatishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. заман / заман ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

39. 강압적인 건 싫어! 권유하듯 요청하기

BOSIMNI YOQTIRMAYMAN !

TAVSIYA SIFATIDA ILTIMOS QILISH

- Demak, ertaga soat 10 da uchrashib, taqdimotga tayyorgarlik ko‘rishga qaror qildik-a ?

- Ha, ertaga soat 10 da.

- Lekin, menimcha, ertaga hamma ishni tugatmoqchi bo‘lsak **ertaroq uchrashishimiz kerak** – 일찍 만나야 할 것 같은데 ... Ertaroq uchrashaylik desak qolganlarga yoqmasa kerak, shundaymi?



Bunday vaziyatda qanday gapirish maqsadga muvofiq?

Suhbatdosh sizning taklifingizni qabul qilmaydi deb o'ylasangiz iltimosingizni taklif sifatida aytganingiz ma'qul. Suhbatdoshni majburlamasdan biron ishni bajarishga undamoqchi bo'lsangiz 내일 더 일찍 만나면 어때? – “*Ertaga ertaroq uchrashsak qanday bo 'larkin?*” yoki 내일 더 일찍 만나는 게 어때? – “*Ertaga ertaroq uchrashsak-chi?*” kabi tavsiyaviy xarakterdagи ifodalardan foydalanish mumkin. Har qanday holatda ham “*Ertaga ertaroq uchrashganimiz yaxshi*” kabi ifodadan foydalanish ham mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys tilida yana qanday tavsiyaviy xarakterga ega iltimos qilish usullarini bilasiz?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

40. 다시 설명해 달라고 요청하기

YANA TUSHINTIRIB BERISHNI ILTIMOS QILISH

- ... Shunday qilib ertadan boshlab biz jihoz va buyumlarni tekshirishimiz kerak, Kelli xonim siz avval...
- (*Hayolan*) Nimalar deyapsiz? Nima haqida gap ketayorganini ham tushunmayapman...



Bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan ma'qul?

Suhbatdosh aytgan gaplarini yaxshi tushunmagan bo'lsangiz, uni yana tushuntirib berishini iltimos qilishingiz mumkin. Odatda 무슨 말씀이신지 – “*Nima degandingiz...*” 잘 이해하가 안 되는데요 – “*Yaxshi tushunmadim*”, 잘 못 들었는데요 – “*Yaxshi eshita olmadim*” kabi ifodalardan foydalilanildi. Bunday ifodalardan foydlanish suhbatdoshdan qayta tushuntirib berishni iltimos qilishni ifodalaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 무슨 말씀이신지 ifodasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Sizning fikringizcha biron holatni yaxshi tushunmaganda suhbatdoshdan qayta so'rash o'rinlimi?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

4

RAD ETISH

41. 솔직해도 너무 솔직한 거 아니야? 이유 있는 거절

SABABNI KELTIRIB RAD ETISH

현우: Viktoriya! Shu juma kuni vaqting bormi ?

빅토리아: Juma? Biron nima bo‘lyaptimi?

현우: Ha, vaqtinging bo‘lsa, mening chiqishimga kel.

빅토리아: Zo‘rku, ijro qilyapsanmi? Nima ijro qilyapsan?

현우: Klassik yo‘nalishdagi ijro.

빅토리아: Ha, Klassika? Klassika bir oz murakkab bo‘lgani uchun unchalik yoqtirmayman.



Klassik musiqa to'garagi a'zosi Hyongu nihoyat chiqish qilmoqda! Hyonu o'zidan kichik/quyi sinfda o'qiydigan Viktoriyani o'z chiqishiga taklif qildi. Ammo, Viktoriya klassik musiqani yoqtirmasligi va u yerga borish istagi yo'qligini aytib, Hyonuning taklifini rad etmayaptimi? Hyonu xijolat tortdi. Hatto siz to'g'ri so'z bo'lsangiz ham, bunchalik to'g'ridan-to'g'ri javob berish qanchalik to'g'ri? Sizni taklif qilgan odamni xijolatga qo'yasiz... Biroq, Viktorianing fikri boshqacha. U shunchaki borishni xohlamasligini aniq aytdi. Unday bo'lsa muammo nimada ? Qanday rad qilish kerak?

Taklifini qanday rad etish mumkin?

- ❖ 난 클래식 공연은 안 좋아하는데 – Men klassik yo'nalishdagi ijroni yoqtirmayman.
 - ❖ 난 그 공연에는 가고 싶지 않아요 – Men bu namoyishga borishni xohlamayman.
 - ❖ 약속이 있는데 어떡하죠? 다음에는 꼭 갈게요 – Uchrashuvim bor edi, qanday bolarkin? Keyingi safar albatta boraman.
 - ❖ 어쩌지... 다음에 가면 안 될까요? 이번에는 못 갈 거 같은데 ... – Nima qilishga ham hayronman ... keyingi safar borsa bo'ladimi? Bu safar bora olmayman deb o'ylayman...
-

Suhbatdoshning taklifini rad etish oson emas. Qo'pol ravishda yoki to'g'ridan-to'g'ri rad javobini berish suhbatdoshning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, 1- va 2- javobda keltirilgan ifodalar rad etishning qo'pol shakli hisoblanadi. Taklifga javoban imkoningiz yo'q ekanligini va siz bundan hijolat tortayotganingizni suhbatdoshingizga yetkazish maqsadida 3- va 4-bandlarda keltirilgandek 어떡하죠? – “*Qanday bo'larkin?*” 어쩌지 – “*Nima qilishga ham hayronman...*” ifodalardan foydalansangiz, yumshoqlik bilan rad etgan bo'lasiz va bu suhbatdoshga qattiq botmaydi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobini berish qanchalik to‘g‘ri?
2. Taklifni rad etishda qanday ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

42. 추측인 듯 말하는 알쏭달쏭 한국인의 거절

TAHMIN QILGANDEK GAPIRADIGAN KOREYSNING RAD ETISHI

왕린: Mina bandmisan ?

민아: Yo‘q nega edi?

왕린: Tushdan keyin yordam bera olasanmi ?

민아: Vang Lin uzr. Tushdan keyin darslarim borligi uchun yordam bera olmaydiganga o‘xshayman.

왕린: (*Hayolan*) Darsi bo‘lishi mumkin emasda... bu nimasi ekan ?



Vang Lin va Mina mактабда bir-birlariga дуч kelib qolishdi. Vang Linga “Koreya to‘lqini” – 한국 kontserti haqidagi e’lonni tarqatish uchun yordamchi kerak edi. Shu payt mehribon Mina bilan to‘qnash kelib qoldi. Yaxshiyamki, Mina band emasman deb javob berdi. Aynan kerakli javob edi! Biroq, Mina: 오후에는 수업이 있어서 안 될 것 같은데 – “*Tushdan keyin darslarim borligi uchun yordam bera olmaydiganga o ‘xshayman*” degan javobni ham aytdi. Eh, tushdan keyin darsim bor deb aytdimi? Yo‘q, bir soniya! Darsga bormasam ham bo‘ladi dedimi? Shuning uchun bu haqda o‘ylab ko‘rishim kerak dedimi? Yoki dars borligi uchun imkonim yo‘q dedimi?

Iltimosni rad qilishda qanday javob berish kerak?

- ❖ 미안하지만 안 돼 – *Kechirasiz, lekin imkonim yo ‘q.*
- ❖ 미안한데 나는 수업이 있어 – *Kechirasan, lekin darsim bor.*
- ❖ 오늘 오후? 난 수업이 있어서 ... – *Bugun tushdan keyinmi? Meni darsim bor edi ...*
- ❖ 오후에는 안 될 것 같은데 – *Tushdan keyin bo ‘lmaydi deb o ‘ylayman.*

Suhbatdoshning iltimosini rad etish oson ish emas. Koreyslar muloqotda aniq va qat’iy tarzda rad etishdan ko‘ra bilvosita ifodalardan foydalanib rad etishni afzal biladilar. Shuning uchun 1- va 2- ifodada berilganidek rad javobini berishdan ko‘ra, 3- va 4 - ifodalar kabi noaniq yoki biron ishni tahmin qilayotgandek gapirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Koreys muloqot madaniyatida rad etishda nima uchun tahmin ifodalaridan foydalaniлади?
2. Iltimosni rad etishda qanday ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq?
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

43. 도와 달라 했더니 동문서답을?

YORDAM SO'RAGANDA O'RINSIZ JAVOB ?

빅토리아: Kechirasiz, bu yerga birinchi marta kelishim edi, shu kitobni izlayotgandim, qayerdan topsam bo‘ladi?

한국인: Kechirasiz, men ham birinchi marta kelishim edi.



Bu Milliy kutubxona. Viktoriya Milliy kutubxonaning kattaligidan hayratga tushdi, u ilgari hech qachon ko‘rmagan edi. Hayratlanarli! O‘qish zali keng va kitoblar ko‘p! Viktoriya kitobni qanday topsa bo‘larkin? Viktoriya atrofga qarasa, bir koreys uning yonida kitob izlayotgan edi. Ha, bu yechim bo‘la oladi. Shu insondan so‘rash kerak! Viktoriya koreys tilida ravon so‘zlab, shu qizdan kitobni qanday topish mumkinligini so‘radi: Kutubxonaga birinchi bor kelishim edi, mana bu kitobni topa olmayapman. Lekin, Viktoriya u qizning 저도 처음이라서요 – “Men ham birinchi marta...” degan javobidan hayratga tushdi. Men undan kitobni qanday topish mumkin deb so‘raganimda nega u kutubxonaga birinchi marta kelganini aytди? O‘rinsiz javob emasmi? – 동문서답 아니야? ⁶



Yordam so‘rab iltimos qilganida nima uchun o‘rinsiz javob olindi ?



Ba’zida notanish insonlar sizdan yo‘l so‘rashi yoki biron narsadan foydalanish usulini tushuntirib berishingizni iltimos qilish holatlari uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda 몰라요 – “*Bilmadim*” deyishdan ko‘ra, 저도 처음이라서요 – “*Men ham birinchi marta ...*” deb javob bergen ma’qul. Bu ifoda o‘rinsiz javobga o‘xshab tuyulishi mumkin bo‘lsa-da, aslida nima uchun siz bu ishni qila olmasligingizni sababini tushuntiruvchi ifodadir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 동문서답 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

⁶ 동문서답 사자성어 hisoblanib, har bir bo‘g‘in ma’lum bir ma’noni ifodalaydi. 동 – sharq, 문 – savol 서 – g‘arb, 답 – javob, ya’ni, sharqdan savol g‘arbdan javob deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilida esa “Ali desam Vali deydi” yoki “Men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelasan” kabi ifodalarga mos keladi.

44. 을 것 같지만 안 온다! 애매한 한국인의 거절

KELAMAN DEGANDEK EDI, KELMABDI

KOREYSLARNING NOANIQ RAD ETISHI

왕린: Bu shanba to‘garak yig‘ilishi borligidan xabaring bor, shundaymi?

민아: Voy, shu shanba edimi ?

왕린: Nima bo‘ldi, yodingdan chiqdimi? Sen albatta kelishing shart.

민아: Haligi... men bora olmasam kerak.

왕린: Unday qilma birga boramiz.

민아: **Vaziyatga qarab, vaqtim bo‘lsa boraman.** – 상황 보고 시간 되면 갈게.

왕린: Mina nega kelmadi ekan?



Vang Lin va Mina ko‘ngillilar to‘garagiga qatnashishga qaror qilishdi. Majlis shu shanba kuniga belgilangan edi. Vang Lin hayajonda Minaga shanba kungi majlisni eslatadi. Lekin nima uchun Mina majlis haqida unutdi? Hech kimni tanimagani uchun yolg‘iz borishni istamagan Vang Lin Minadan kelishini iltimos qildi. Shunda Mina vaziyatga qarab, vaqtি bo‘lsa borishini aytadi. 시간 되면 온다고?
— *Vaqtim bo‘lganda kelaman dedimi?* Vang Lin Minaning kelishi yoki kelmasligiga ishonchi komil emas. Vang Lin Minaning vaqtি bo‘lsa kelishini aytgani uchun uning kelishiga ishondi. Ammo shanba kuni Mina yig‘ilishga kelmadi. Nega kelmadi ekan?



Vaqtim bo‘lsa kelaman degan odam, rostdan ham keladimi?

.....

Koreyslar suhbatdosh oldida to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishga hijolat bo‘ladilar. Shuning uchun 시간 되면 갈게 – “*Vaqtim bo‘lsa boraman*” kabi noaniq javob orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qat’iy rad etishdan qochadilar. Bu ifodada huddiki imkon bo‘lsa, kelishilgan ish bajarilishi mumkindek ko‘rinsa-da, aslida suhbatdoshning taklifini rad etish usuli sifatida foydalanish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

- 상황 보고 시간 되면 갈게 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
- Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

45. 얼버무리면 이것도 거절

NOANIQ JAVOB – BU HAM RAD ETISH USULLARIDAN IKKILANISH – BU HAM RAD ETISH

빅토리아: Mina, sen musiqa tinglashni yoqtirasana?

민아: Ha, yoqtiraman. K-pop qo‘shiqlarini tez-tez tinglab turaman.

Бикториа: Rostdanmi? Unday bo'lsa juda yaxshi. Men K-pop to'garagiga bormoqchiman, men bilan birga bor. Haqiqatda juda qiziqarli bo'ladi, shunday emasmi?

Миня: A... haligi... – 음... 그게 ...

Бикториа: (*Hayolan*) Unga gapim yoqmadi shekilli? Aniqroq gapirsam bo'lar ekan...



Viktoriya K-popga juda ham qiziqadi. Maktabdagisi to'garaklar orasidan K-pop to'garagi haqidagi e'ltonni ko'rib, ushbu to'garakka yozilishga qaror qildi. Koreys musiqasini tinglab, koreys xonandalarining raqlarini ham takrorlashga Viktoriyaning yuragi oshiqib ketdi. Faqat, yolg'iz ro'yxatdan o'tish biroz... yana kimdir shu togarakka yozilsa yaxshi bo'lardi deb o'ylayotgandi. Ammo, 민아 ham

k-popni yoqtiraman deb aytmagan edimi? Unda juda yaxshi ish bo‘ldi. To‘garakda birga ishtirok etishsa yaxshi bo‘lar edi. 빅토리아 민아 ga “K-pop to‘garagiga bormoqchiman, men bilan birga bor. Haqiqatda juda qiziqarli bo‘ladi, shunday emasmi? – degan edi, 민아 ikkilangandek bo‘ldi. Viktoriya Minaga aniqroq gapirishim kerak edi deya bir oz hijolat chekdi.



Aniqroq gapirsa ham, yaxshi bo‘lardi, ammo nega ikkilandi ekan-a?

.....

Suhbatdoshning taklifini rad qilish oson ish emas. Bunday holda, darhol javob bermasdan noaniq shaklda yoki ikkilanish qiyofasini ko‘rsatishning o‘zi bilan ham rad javobini fodalash mumkin. Shu tarzda rad qilinsa, rad etayotgan inson ham o‘zini noqulay his etmaydi, taklif qilayotgan inson ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobini olmaganligi uchun ko‘ngli cho‘kib qolmaydi.



Asabiylashishga sabab bo‘lsa-da, noto‘g‘ri tushunmaylik!

To‘g‘ridan-to‘g‘ri rad qilishni afzal ko‘rvuchi davlatlar qatorida Koreya kabi bilvosita rad qilishni afzal ko‘rvuchi davlatlar ham mavjud. Bevosita rad qilishni afzal ko‘radigan madaniy qadriyatlarga ega davatlarda koreyslarning noaniq javob berish yoki ikkilanish kabi qiyofasini ko‘rsatish suhbatdoshni biroz ko‘ngliga tegishi/asabiylashtirishi ham mumkin. Biroq, buni noto‘g‘ri tushunmaslik kerak. Suhbatdoshni noqulay ahvolga solishni istamaydigan koreyslarning fikrlash tarzi sifatida qabul qilgan ma’quldir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Nima uchun ikkilanish bilan javob berish koreys muloqotida rad etish usuli hisoblanadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

46. 미루기, 거절의 또 다른 방법

KECHIKTIRISH – RAD ETISHNING YANA BIR USULI

민아: Biznes boshqaruvi bo'yicha topshiriqning barchasini tugatdingmi?

빅토리아: Yo'q, hali tugatolmadim. Juda qiyin ekan.


민아: Janob 윤정 dan yordam so'rab ko'ramizmi? Men qo'ng'iroq qilib ko'raman...

... Alo~... Ha~... Bu hazil emasku? Nima demoqchiligini tushunmadim.

빅토리아: Nima dedi?

민아: 현우 mendan yaxshiroq biladi, undan iltimos qilib ko'r dedi.

빅토리아: Yordam bera olmayman demoqchi-da.



민아 hamda 빅토리아 bu semestrda biznes boshqaruvi fanidan birgalikda saboq olishmoqda. Mutaxassislikka oid terminlar juda qiyin bo‘lib, ustiga ustak murakkab nazariyalarning ham ko‘p ekanligi chet ellik bo‘lgan 빅토리아 ni yanada chalkashtirib yubordi. Ayniqsa, bu safargi dars topshirig‘i haqiqatdan murakkab ediki, hatto 민아 ga ham qiyinlik qildi. Shu orada 민아 ga bir fikr keldi. O‘tgan semestrda shu darsda ishtirok etgan yuqori sinf o‘quvchisi 윤정 ni eslab, undan yordam so‘rab murojaat qilmoqchi bo‘ldi. Javobni intizorlik bilan kutayotgan 빅토리아 ga 민아 telefon go‘shagini qo‘yib, nima deyishni bilmay qoldi. Bizdan katta sinf o‘quvchisi 현우 dan so‘rab ko‘rishimizni aytdi. Ha, rad etibdi-da... Endi 빅토리아 ham yaxshi tushunadigan bo‘libdi!



Boshqa insonlarga yuklash rad etishning bir usulimi?

.....

Hozirgacha guvohi bo‘lgan holatlarimiz rad etishning bilvosita usullari edi. Rad etishning yana bir usuli boshqa insondan yordam so‘rab ko‘rishni taklif qilish yoki boshqa insonga shu ishni yuklashdan iboratdir. Mazkur usul to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobini berishni istamaslikni aks ettiradi, deyish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Nima uchun suhbatdoshdan biron ishni iltimos qilganda boshqa insonga yuklash rad etish hisoblanadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

47. 생각 없다고? 이것도 거절?

BILMASLIK – BU HAM RAD USULIMI?

제임스: Soat 12 bo‘libdi, oshxonaga kettik. 지혜 xonim, tushlikka bormaysizmi?

지혜: **Bilmasam** – 생각 없어요

제임스: Nega bilmaysiz? Qorningiz ochmadimi? Oshxonadan mazali taomlarning hidi kelyapti-ku.

이 대리: Nima bo‘ldi? Biron noxush ish yuz berdimi?



Vanihoyat, tushlik vaqt. Bino ichidagi oshxonada mazali taom tayyorlanilayotganga o‘xshardi. Taom isi har doimgidek mazali edi. 제임스 hamda ♂ 대리 soat 12 bo‘lishi bilanoq tezlik bilan oshxona tomon yugurishga tayyor! 제임스 hamkasbi ♂ 혜 xonimga tushlik qilishga borish taklifini bildirgan edi, ♂ 혜 xonim rad etdi. 전 생각이 없어요 - *Hech narsani o’ylamayapman / Bilmasam* degan ♂ 혜 ning sovuq holatini sezgan ♂ 대리 esa 무슨 일 있어요? – *Nimadir bo ‘ldimi?* – deya so‘radi. Vaziyatni yaxshi anglay olmagan 제임스 esa 왜 생각이 없어? 배 안 고파요? – *Nega bilmaysiz? Qorningiz ochmadimi?*” deya so‘rab, olgan javobidan hayratda edi. *bilmasam* so‘zi birga taomlanaylik taklifiga rad javobini anglatadi.... Nega endi ♂ 대리 ♂ 혜 xonimning kayfiyatini kuzatmoqda?



생각이 없다 – *Bilmasam* rad etish ifodasi odobsizlik ifodasimi?

.....

Suhbatdoshning taklifi yoki iltimosini rad qilayotganda, koreyslar 생각이 없다 – *Bilmasam* kabi iborani tez-tez qo‘llaydilar. Koreys jamiyatida bu ifodadan ko‘pchilik rad etishda foydalangani sabab, asl ma’nosidan farqli ravishda suhbatdoshga gapni cho‘rt kesish hissini beradi. Shuningdek, ushbu ifodadan ma’lum darajada tanish bo‘lgan, ijtimoiy mavqeい teng yoki yoshi bir xil bo‘lgan munosabatlardagina foydalangan ma’qul. Bunday rad etish odobsizlik sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Masalan, firma oddiy xodimi o‘zidan yuqori lavozimdagи insonga nisbatan ishlatib bo‘lmaydigan ifoda hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 생각이 없다 ifodasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

48. 호의를 거절하기는 어려워

YAXSHILIKNI RAD ETISH QIYIN.

제임스: Men ketyapman. Ertaga ko‘rishguncha.

이 대리: Janob 제임스 uyingiz qaysi tarafda edi? Ish bilan ketayotgandim, sizni yo‘lda qoldirishim mumkin.

제임스: Haligi... *Hayolan* (Yolg‘iz o‘zim ketsam qulayroq bo‘lar edi, bunday paytda qanday qilib rad qilganim yaxshi ekan-a?)



제임스 ishdan qaytayotganda ♂ 대리 ni uchratib qoldi. Tasodifan u 제임스 ning uyi tarafga ketayotganini aytib, yo‘lda tashlab o‘tish taklifini berdi. 제임스 ushbu g‘amxo‘rlikni qadrlagan bo‘lsa-da, yolg‘iz o‘zi ketishni yanada qulayroq deb hisobladi. Ammo, 제임스 qanday rad etishni bilmasdan ikkilanayotgan edi. Bunday noqulay vaziyatdan qanday chiqish mumkin ?

Suhbatdoshning g‘amxo‘rligini qardlasada, rad etishga majbur bo‘lganda qanday yo‘l tutgan ma’qul?

- ❖ 됐어요 – *Shart emas / Yetarli / Bo ‘ladi*
 - ❖ 괜찮아요 – *Hech qisi yo‘q*
 - ❖ 아니에요 – *Raxmat / Arzimaydi*
 - ❖ 그러지 마세요 – *Unday qilmang*
-

Suhbatdosh sizni qadrlab, ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini rad qilish ham oson ish emas. Bunday vaziyatda 2- va 3-bandlarda ko‘rsatilgani kabi javob berish maqsadga muvofiqdir. 1- va 4-bandlarda keltirilgan ifodalar keskin javob bo‘lgani uchun suhbatdoshning kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. 1-javobda esa ohangga juda e’tibor qaratish lozim bo‘lib, keskin rad qilish taasurot ifodalashi mumkinligi sababli ehtiyyot shart.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Suhbatdosh tomonidan bildirilgan taklifga qanday ifodalar orqali rad etish mumkin?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

49. «팬찮아»의 두 얼굴

“팬찮아” IFODASINING IKKI MA’NOSI

팬찮아 ifodasining 1-ma’nosi

민아: Kun juda ham issidi, tomog‘im ham qurib ketdi...

친구: Suv ichasanmi?

민아: **Rahmat, kerakmas – 팬찮아.**



팬찮아 ifodasining 2-ma’nosi

빅토리아: Voy, qanday qilib bo‘ldi, 민아 kechir...

민아: **Hech qisi yo‘q – 팬찮아.**



팬찮다 – *Hech qisi yo‘q* iborasi “*Unchalik yomon emas*”, “*Hech qanday muammo, tashvish yo‘q*” kabi ma’nolarga ega. Birinchi holatda 팬찮다 iborasi suhbatdosh yordam bermoqchi bo‘lganda, yordamni qabul qilmasa ham muammo yo‘q degan ma’noda rad qilishni ifodalaydi. Shuningdek, ikkinchi vaziyatda ko‘rsatilganidek biron muammo yuzaga kelganda, bu muammo emasligini anglatadi. Bunday holatlarda, hech qanday muammo yo‘qligini bildirish ma’nosida qo‘llanilgan 팬찮다 iborasi suhbatdoshni tinchlantirish ta’siriga ega.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 팬찮다 ifodasi qanday ma’nolarni anglatadi?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

50. 직접적인 거절은 이제 그만!

BEVOSITA RAD ETISH O‘RNIGA ...

Ilojsiz holatlar haqida gapirish

- Meni klassik gitara to‘garagida chiqishim bor edi, kelasanmi?
- Uchrashuvim bor ediya, nima qilsam ekan? Keyingi safar albatta boraman.



Ilojsiz holatni gapirish orqali muloyimlik bilan rad qilish mumkin.

Taxminiy ifodadan foydalanish

- Bugun namoyish uchun e'lon osishim kerak edi, menga yordam bera olasanmi?
- Nima qilishga ham hayronman, tushdan keyin vaqtim bir oz to‘g‘ri kelmaydiganga o‘xshaydi.



– 을 것 같다 “*shunaga o‘xshaydi*” kabi taxmin ifodalaridan foydalanib, bevosita rad etishdan qochish mumkin.

Taklif qilish yoki boshqa insonga yuklash

- Opa, bu safargi topshiriq juda qiyin ekan. Mobodo, yordam bera olmaysizmi?
- Buni 현우 yaxshiroq bajaradi, undan so‘rab ko‘raqol.



Biron ish yuzasidan iltimos qilinganda uni boshqa inson bajarishini taklif qilish yoki boshqa insonga topshirish ham bilvosita rad etishning bir usulidir.

Javob bera olmasligini aytish

- Bu kitobni topishni juda xohlayotgandim, qayerdan topsam bo‘ladi?
- Haligi, men ham bu yerda birinchi martta edim.



Savolga javob bera olmaslik ham rad etishning bilvosita usulidir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. Bevosita rad etish o‘rniga qanday ifodalar bilan rad javobini berish mumkin?
2. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

51. 정중하게 거절하기

MULYOYIMLIK BILAN RAD ETISH

사장님: Mobodo, do‘konimizda yana bir haftacha ishlay olasanmi? Shu kunlarda qo‘srimcha ishda ishlaydigan talabalarni topish qiyin.

직원: Sizning ahvolingizni tushunib turibman, ammo ota-onam harbiy xizmatga ketishimdan avval, bir necha kunga uyga borishimni xohlashayotgandi. Ma’zur tutasiz.



Suhbatdoshning iltimos qilayotgan holatini yoki iltimosini tushunganligini suhbatdoshga anglatgan holda rad qilish mumkin. 사정은 알겠지만 – *Vaziyatni tushunyapman, ammo...*, 말씀을 알겠지만 – *Gapingizni tushundim, lekin...* kabi iboralaridan foydalanish mumkin.

교수님: 왕린, men ishlayotgan loyiha bo'yicha ta'til davomida ham ishtirok eta olasanmi? Xitoy tilidan tarjima ishlarida yordaming kerak edi.

왕린: Janob professor, bu ishni menga ishonib topshirmoqchi ekanligingizdan minnatdorman, ammo bu safargi ta'tilda amaliyotni Xitoyda o'tashga qaror qilganligim uchun loyihada ishtirok eta olmaydiganga o'xshayman, ma'zur tutasiz.



Suhbatdoshingizga siz haqingizda yaxshi taassurotda ekanligi uchun minnatdorchilik bildirib, taklifni rad etishingiz mumkin.

믿고 맡겨 주셔서 감사하지만 – *Ishonib, menga topshirmoqchi ekanligingizdan minnatdorman, ammo...*, 호의는 감사하지만 – *Bu yaxshililingizni qadrlayman, ammo...* kabi ifodalardan foydalanish mumkin.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 사정은 알겠지만, 말씀을 알겠지만 ifodasi qanday ma'nolarni anglatadi?
2. 믿고 맡겨 주셔서 감사하지만 ifodasi qanday ma'nolarni anglatadi
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

52. 마음만 받고 선물을 거절하기

QALBAN QABUL QILIB RAD ETISH

선배: 빅토리아, bu safargi topshiriqni koreys tilida bajarish biroz qiyin emasmi? Men yordam beraymi?

빅토리아: Shu so'zingiz uchun ham rahmat/ So'raganingiz uchun ham rahmat.

Avval men o'zim bajarib ko'ray, qiyin bo'lsa, u holda iltimos qilaman.



말만을로도 고마워요 – *So 'raganiningiz uchun ham rahmat*, 말만 들어도 감사합니다 – *Tinglaganiningiz uchun ham rahmat kabi ifodalardan foydalananib minnatdorlikni ifoda etgan holda suhbatdoshning yordamini rad etish mumkin.*

직원: 부장님, bu yangi kosmetika mahsuloti, quruq teri uchun juda yaxshi ekan.

부장님: Ha, shundaymi, o'ylaganiningzning o'zi ham yetarlik edi.



Odatda, sovg'a olishni rad etish usullaridan biri bu – uni qabul qilishda suhbatdoshga minnatdorlik bildirib, 마음만 고맙게 받을게요 – *G'amxo 'rligingizni*

mamnuniyat bilan qabul qilaman, 마음만으로도 충분해요 – *O'ylaganingizning o'zi ham yetarlik edi* kabi ifodalardan foydalanishdir.

Shuningdek, sovg'a berayotgan kishiga minnatdorlik bildirib, 마음만 고맙게 받을게요 – *G'amxo'rлиgingizni mamnuniyat bilan qabul qilaman*, 마음만으로도 충분해요 – *O'ylaganingizning o'zi ham yetarlik edi* kabi ifodalar orqali javob berish sovg'a olishni rad etish usullaridan biridir.

Nazorat savollari va topshiriq

1. 말만 들어도 감사합니다 ifodasi qanday ma'nolarni anglatadi?
2. 마음만 고맙게 받을게요, 마음만으로도 충분해요 ifodalari qanday ma'nolarni anglatadi
3. Shu vaziyatga mos dialog tuzing.

GLOSSARIY

SALOMLASHISH		
대표적이다	vakil bo‘lish	to be representative
관련되다	bog‘liq bo‘lish	to be related
실제로	haqiqatan ham, aslida	really, actually
강조하다	ta’kidlamoq	to emphasize
우연히	tasodifan	by chance
이쉬움	nimanidir yetishmasligini his qilish	feeling the lack of something
구체적이다	aniq	to be definite
살피다	tekshirmoq	to check
배려하다	e’tiborli bo‘lmoq	to be considerate
친근감	yaqinlik hissi	sense of closeness
예상하다	kutmoq	to expect
당황스럽다	xijolat bo‘lmoq	to be embarrassed
안색	yuz rangi, korinishi	complexion
출력하다	chop etmoq	to print out
공식적이다	rasmiy	to be official
업무	ish, vazifa	work, task
문병	bemorni ko‘rishga borish	visiting to a sick person
병문안	bemorni ko‘rishga borish	to call on a patient
생활용품	kundalik foydalanadigan buyumlar	daily supplies
세제	yuvish vositalari	detergent, cleanser
거품	ko‘pik	bubble
고생하다	qiyingchilik ko‘rmoq	to have a hard time
예의	odob	politeness, manner

어긋나다	qarshi chiqmoq	to go against
제품	maxsulot	product
소비자	iste'molchi	consumer
논의하다	muhokama qilmoq	to discuss
상사	boshliq	boss, superior
부하 직원	quyi lavzoinli ishchi	a junior staff
직위	lavozim	one's duty, position

MAQTOV

얼굴형	yuz tuzilishi	shape of face
부담스럽다	noqulay his qilmoq	to feel uncomfortable
지나치다	haddan tashqari	to be excessive
불공평하다	adolatsiz	unfair
상금	pul mukofoti	prize money
싸하다	jim bo'lmoq	to be silent
평가하다	baholamoq	to evaluate
예의 없다	beodoblik	to be rude
동안	yosh bola	baby face
경향	tendensiya	tendency, trend
상징	ramz	symbol
새신랑	yangi kuyov	new groom
전액	umumiyl miqdor	total amount
인재	iste'dodli inson	talented person, man of ability
공부벌레	o'qishga mukkasidan ketgan inson	grinder
덧붙이다	qo'shmoq, yopishtirmoq	to add
한턱내다	"yuvib bermoq"	to shout, to stand treat
대접하다	mehmon qilmoq	to treat
부정하다	salbiy	to deny, to answer in negative

동의하다	fikrga qo'shilmoq, rozi bo'lmoq	to agree
사고방식	tafakkur	attitude
장만하다	tayyorlamoq, ega bo'lmoq	to purchase
우승	g'alaba	victory
얻어 내다	qo'lga kiritish	to get, to gain
안심하다	yengillik his qilmoq	to feel relieved
못마땅하다	norozi bo'lmoq	to be displeased with
비꼬다	istehzoli bo'lmoq	to be sarcastic
역양	ohang	intonation
주의하다	ehtiyot bo'lmoq	to pay attention to
형편	holat	circumstances, conditions
작용하다	ta'sir o'tkazmoq	to affect
부인하다	inkor qilmoq	to deny, to answer in negative
거부하다	rad qilmoq	to reject, to refuse
무안하다	noqulay bo'lmoq	to be ashamed

ILTIMOS VA TALAB

직접적이다	to'g'ridan-to'g'ri	to be direct
넌지시	bildirmasdan	indirectly
당황하다	asabiyashmoq, xijolat tortmoq	to be flustered, to be embarrassed
권리	huquq	right
요구	talab	demand
밝히다	yorishmoq	to speak one's mind
의지	intilish, iroda	will
부담	yuk	burden
맡겨 놓다	biron vazifani olmoq	to leave
가능성	imkoniyat	possibility
안타깝다	afsusli	to be regrettable

의아하다	g‘alati	to wonder
기한	so‘nggi mudat kuni	deadline
허락을 구하다	ruxsat so‘ramoq	ask for permission
선호되다	ma’qul bo‘lmoq	to be preffered
정신 없다	o‘zida bo‘lmaslik	to be out of mind
착각하다	adashmoq, xato qilmoq	to mistake
눈치 빠르다	ziyrak, farosatli	to be quick to notice
말을 꺼내다	gap bpshlamoq	to bring up, to begin to speak
드디어	va nihoyat	finally, eventually
거북하다	noqulay	to be uncomfortable
격식적이다	rasmiy	to be formal
문체	uslub	style
마감	oxirgi kun, so‘nggi muddat	deadline
동료	hamkasb	colleague, co-worker
애절하다	jiddiy bo‘lmoq	to be earnest

RAD ETMOQ

솔직하다	rostini aytmoq	to be honest, to be frank
분명하다	aniq	to be clear
취향	did	taste, preference
어쩔 수 없다	imkonsiz bo‘lmoq	to be inevitable
단정적이다	yakuniy	to be conclusive
선호하다	afzal ko‘rmoq	to prefer
규모	ko‘lam	scale, size
보람 있다	foydali	to be worthwhile
여운	qolgan taassurot	aftertaste
가슴이 뛰다	yurak urmoq	one’s heart beats
망설이다	ikkilanmoq	to hesitate
미루다	ortga surmoq	to delay, to postpone

적합하다	mos kelmoq	to be appropriate
반영하다	aks etmoq	to be reflected in
구내식당	qahvaxona, tamaddixona	cafeteria
파악	anglamoq, tushunmoq	grasp, understanding
기분이 상하다	kayfiyati tushmoq	to be offended, to be displeased at
안심시키다	tinchlantirmoq	to reassure

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 19-yanvar sanasidagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.
4. Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича фал. док. дисс... (PhD). – Тошкент, 2023. 146 б.
5. Гузикова М.О. Основы теории межкультурной коммуникации. Екатеринбург, Изд-во Уральского университета. 2015. – С. 16.
6. Клочко Л.И. Похвала как оценочное высказывание в английском языке. – Вестник Международного Славянского ун-та. — №4 (3), 2000. – С. 50-53.
7. 이해영. 한국어 대화법 77 법. Hawoo publishing. 서울시, 2019. 185 쪽.
8. <https://s-space.snu.ac.kr> 제효봉.한국어 호칭어 교육 방안 연구. 285 쪽
9. https://www.hani.co.kr/arti/specialsection/esc_section/690091.html
10. <https://blog.naver.com/bbalsong/220052490464>
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Human_resource_management
12. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyevning-shan-11-06-2018>
13. <https://president.uz/uz/2152>

ASHIRBAYEVA DILORAM RAVSHANOVNA

KOREYS TILIDA SUHBAT USULLARI

O‘quv qo‘llanma

bakalavr bosqichi talabalari uchun

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2024-yil
10-iyuldagи 165-UM-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat etilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 10.07.2024

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 7,75 b.t.

50 nusxada bosildi. Buyurtma №

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20.